**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**60310100 – Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovi**

# D A S T U R I

**Namangan-2026**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

## NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
____________________A.Akramov
”_____”______________2026 y.

60310100 – Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovi

# DASTURI

**Namangan-2026 yil**

## ANNOTATSIYA

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2009 yil 5 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining Yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №1963-sonli buyrug‘i, O’zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №3069-sonli buyrug‘i hamda 2025/2026 o’quv yilini yakunlash bo‘yicha OTM rektori buyrug‘i, Universitet Kengashining “Bitiruvchi kurs talabalarining Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish to’g’risida”gi qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib hamda “Namangan davlat texnika universitetida bakalavriat ta’lim yo’nalishi bitiruvchilarining yo’nalish fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish tartibi to’g’risida yo‘riqnoma”ga asosan tayyorlandi.

Yo‘nalish fanlardan tuzilgan sinov dasturi 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo‘nalishi mutaxassislik bo‘yicha o‘qitiladigan fanlarning namunaviy dasturi asos qilib olindi.

Dastur 3 ta bo‘limdan iborat bo’lib, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikroiqtisodiyot” va “Makroiqtisodiyot” kabi yo‘nalish fanlarini o’z ichiga olgan.


Tuzuvchilar: prof., DSc. O.Aripov
prof. i.f.n. M.Yu. Isakov
dots., PhD. F.Ergasheva
dots., PhD. E.Jurayev
dots., PhD. X.Raximov

Taqrizchilar: prof., i.f.d. B.Mullabayev
prof., i.f.n. R.Ismatov


Dastur Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti yig’ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun institut kengashiga tavsiya etilgan
20___ yil “_____”________ dagi ______sonli majlis bayoni.

Dastur Namangan davlat texnika universiteti kengashi tasdiqlagan.
20___ yil “_____”________ dagi ______sonli majlis bayoni.

# KIRISH

Mutaxassis kadrlar tayyorlash doimiy dolzarb hisoblangan masala hisoblanadi. Shu bilan birga mazkur masala barcha davlatlarning ijtimoiy rivojlanishida hal qilinishi zarur bo’lgan eng asosiy masalalari qatorida turadi. Xususan, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy me’yoriy asoslar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, o’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-sonli Qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-sonli qarorlari iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari bo’lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlarning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulkni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ilm-fan, innovatsiyalar, IT sohasi, “yashil” iqtisodiyot hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar esa milliy iqtisodiyotimizni yangi bosqichga olib chiqish bilan birga,

zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash masalasini yanada dolzarb etib qo‘ymoqda.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, iqtisodiy munosabatlarni chuqur anglaydigan, hududiy boshqaruv tizimlarini puxta biladigan hamda yangi innovatsion yo‘nalishlarda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish esa, avvalo, oliy ta’lim muassasalari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shu bois, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh, yuqori malakali va zamonaviy fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, bu borada keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

## “MUTAXASSISLIK FANLAR”DAN TEST SINOVLARINING BAHOLASH MEZONLARI

60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi bo’yicha Yakuniy Davlat attestatsiyasi mutaxassislik fanlaridan test sinov savollari dasturi doirasida o’tkaziladi. Test savollari ta’lim yo’nalishining “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikroiqtisodiyot” va “Makroiqtisodiyot” kabi fanlarni ichiga olib 450 ta savoldan iborat bo’ladi. Test sinovini baholashning umumiy mezoni 0 baldan 100 balgacha tashkil etadi. Har bir savol maksimal 2 baldan baholanadi.

Savolnomadagi 50 ta test savolining javoblariga qo’yilgan ballar yig’indisi asosida bitiruvchi talabaning yakuniy davlat attestatsiyasida yo’nalish fanlaridan to’plagan umumiy bali aniqlanadi(1-jadval).

**1-jadval**

**Yakuniy davlat attestatsiyasida baholash tartibi va mezonlar**

| t/r. | Umumiy ball | Testlar soni yoki %da | Baho | YaDA topshirgan talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 90-100 | 45-50 ta<br>90-100% | A’lo | Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, mutaxassislik fanlararo (fanlarning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda mutaxassislik fanlar (fanlarning mavzulari) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 2 | 70-89 | 35-44 ta<br>70-89% | Yaxshi | Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, mutaxassislik fanlararo (fanlarning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda mutaxassislik fanlar (fanlarning mavzulari) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 3 | 60-69 | 30-34 ta<br>60-69% | Qoni-qarli | Talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, mutaxassislik fanlararo (fanlarning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda mutaxassislik fanlar (fanlarning mavzulari) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 4 | 0-59 | 0-29 ta<br>0-59% | Qoni-qarsiz | Talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, mutaxassislik fanlararo (fanlarning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda. |

# 1-BO’LIM. IQTISODIYOT NAZARIYASI

**№1 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllangan: |
| XVII–XVIII asrlar orasida |
| XIX asrda |
| A.Smitning «Xalqlar boyligi...» kitobi chop etilishi bilan |
| Kishilik jamiyati vujudga kelgandan boshlab |

**№2 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi - 2;**

| |
|---|
| Quyidagi sanab o’tilganlardan qaysisi iqtisodiyotni nazariy jihatdan o’rganishda amaliy ahamiyatga ega emas? |
| har bir kishi o’z bilimi va tajribasidan u yoki bu faoliyatda foydalanib pul ishlab topadi. Iqtisodiy nazariya odamlarni yashay bilishga o’rgatadi |
| har bir kishi iqtisodiyotning qonunlarini qanday amal qilishini bilsa, o’z iqtisodiy muammolarini to’g’ri yechishga qodir bo’ladi |
| har bir kishi iqtisodiy jarayonlar ta’sirida bo’ladi va unga o’zi ham ta’sir ko’rsatadi |
| har bir kishi siyosiy muammolar bilan to’qnashadi, ularning ko’pi esa iqtisodiyot bilan bog’liq |

**№3 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi - 2;**

| |
|---|
| Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy modelning mazmunini ifodalaydi? |
| iqtisodiy jarayon va hodisalarning ob’ektiv xususiyatlariga va tadqiqot maqsadi va xarakteriga ko’ra abstrakt tarzda umumlashtirib ifodalangan reallikning konstruktsiyasi, maketi, andozasi |
| iqtisodiy prognozlash |
| iqtisodiy tamoyillar majmuasi |
| iqtisodiyot va siyosatning ideal tipi bo’lib, uni amalga oshirish uchun zarur |

**№4 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi - 1;**

| |
|---|
| Quyidagi ifodalangan iqtisodiy maqsadlardan qaysi birini aniq miqdor bilan o’lchash mumkin? |
| iqtisodiy erkinlik |
| iqtisodiy kafolat |
| to’la bandlik |
| daromadlarni adolatli taqsimlash |

**№5 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi - 3;**

| |
|---|
| Agar qo’yilgan ikki iqtisodiy maqsad bir - biriga zid ekanligi ta’kidlansa, u holda bu quyidagini bildiradi |
| bir vaqtning o’zida ikkala maqsadni amalga oshirib bo’lmasligini |
| amalga oshirilishi lozim bo’lgan maqsad sifatida qo’yib bo’lmasligini |
| ulardan birining amalga oshirilishi ikkinchisini ham amalga oshirilganini |
| ular qarama - qarshi ekanligini |

**№6 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi - 1;**

| |
|---|
| Pozitiv iqtisodiy nazariya: |
| iqtisodiy hodisalarni qanday bo’lsa shundayligiga o’rganadi |
| iqtisodiy hodisalar qanday bo’lishi kerakligini ko’rsatadi |
| bildirilgan fikrlarni tahlil qiladi |
| iqtisodiy tahlillarni umumlashtiradi |

**№7 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi - 2;**

| |
|---|
| Agar iqtisodiy jihatdan umumlashtirish dalillar, raqamlarga asoslansa, u holda bunday tahlil usuli: |
| deduktiv |
| qiyosiy tahlil |
| bayon qilish |
| induktiv |

**№8 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Agar iqtisodiyotda korxona, firma, uy xo’jaligi, alohida olingan bozorlar muammosi tadqiq qilinsa, bunday tahlil: |
| Mikroiqtisodiy |
| Makroiqtisodiy |
| Normativ |
| Ilmiy abstraktiv |

**№9 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiyot nazariyasining qaysi oqimida savdo - sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi? |
| Merkantilizm |
| Fiziokratlar |
| Klassik burjua iqtisodiy maktab |
| Marjinalizm |

**№10 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining qaysi oqimida iqtisodiy o’sishni ta’minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi? |
| Monitarizm |
| Institutsionalizm |
| Liberalism |
| Yangi iqtisodiy oqimlar |

**№11 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? |
| iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo’jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun - qoidalarini o’rganish |
| ijtimoiy munosabatlarni o’rganish |
| huquqiy munosabatlarni o’rganish |
| tashkiliy munosabatlarni o’rganish |

**№12 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Quyidagilardan qaysi biri umumiy iqtisodiy qonunlar jumlasiga kiradi? |
| ehtiyojlarning yuksalish qonuni |
| qiymat qonuni |
| talab qonuni |
| taklif qonuni |

**№13 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy resurslar tarkibini to’liq aks ettiradi? |
| kapital, yer, ishchi kuchi va tadbirkorlik layoqati |
| mehnat vositalari va ishchi kuchi |
| tabiiy va inson resurslari |
| ishlab chiqarishning moddiy omillari |

**№14 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiy resurslarning barcha turi uchun umumiy bo’lgan xususiyat nimadan iborat? |
| nisbatan cheklangan yoki kamyob |
| qiymatga ega |
| tabiat mahsuli |
| mutlaq cheklangan |

**№15 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiyot nazariyasi fani nimani o’rgatadi? |
| kishilik jamiyati rivojlanishining iqtisodiy qonun va qonuniyatlarini |
| ijtimoiy tuzumlarni |
| kishilarning xulq – atvorini |
| moddiy ne’matlar ishlab chiqarishni |

**№16 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiy qonunlar qanday xarakterga ega? |
| ob’ektiv |
| sub’ektiv |
| huquqiy |
| ijtimoiy |

**№17 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Resurslar cheklanganligi muammosini yechish mumkin: |

| |
|---|
| muammoni yechib bo'lmaydi |
| agar hamma odamlar resurslarni tejashsa |
| agar hamma ixtiyoriy ravishda o'z ehtiyojlarini cheklasa |
| to'g'ri iqtisodiy siyosat yuritilsa |

**№18 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Pulingiz yetmagani sababli bir nechta qimmat, lekin sifatli, shu bilan birga bir nechta arzon daftar sotib oldingiz. Siz ... |
| resurslar cheklanganligi, murosali tanlov zaruriyati va muqobil qiymatni baholash muammosiga duch keldingiz |
| resurslar cheklanganligi va muqobil variantni baholash muammosiga duch keldingiz |
| resurslar cheklanganligi tufayli murosali tanlovning zarurligiga duch keldingiz |
| resurslar cheklanganligi muammosiga duch keldingiz |

**№19 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Quyidagi keltirilgan qaysi iqtisodiy tushunchalar ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini ifodalaydi? |
| ishlab chiqarish resurslari cheklanganligi, murosali tanlov, muqobil qiymat |
| talab va taklif |
| yalpi talab va yalpi taklif |
| iste'mol va jamg'arma |

**№20 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiyotning asosiy muommolari quyidagi javob variantlaridan qaysi birida berilgan? |
| nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kim uchun ishlab chiqarish? |
| nima iste'mol qilinadi, qanday ishlab chiqariladi, kim ishlab chiqaradi? |
| nima ishlab chiqariladi, qanday iste'mol qilinadi, kim ishlab chiqaradi? |
| nima iste'mol qilinadi, qanday ishlab chiqariladi, kim iste'mol qiladi? |

**№21 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Muqobil tanlov muammosi: |
| kishilar, firmalar hamda, davlat muassasalari oldida turadi |
| faqat firmalar oldida |
| faqat alohida kishilar oldida |
| faqat korxonalar oldida turadi |

**№22 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Quyidagilarni qaysi biri birgalikda qondiriladigan ehtiyoj hisoblanadi? |
| ijtimoiy ehtiyoj |
| moddiy ehtiyoj |
| mehnat ehtiyoji |
| madaniy - maishiy ehtiyoj |

**№23 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Jamiyat ehtiyojlarining miqdoran o'sib va tarkiban yangilanib borishiga nima ta'sir ko'rsatadi? |
| aholi sonining o'sishi, fan - texnika taraqqiyoti |
| mehnat unumdorligi |
| tovar sifati |
| mehnat intensivligi |

**№24 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Aholi ehtiyojlarining qondirilish darajasi qanday aniqlanadi? |
| aholining haqiqiy iste'moli darajasi va ehtiyojlari taqqoslanadi |
| aholi nominal va real daromadlari taqqoslanadi |
| aholi real daromadlari va ehtiyojlari taqqoslanadi |
| ularning talabi va ehtiyojlari taqqoslanadi |

**№25 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Alohida kishilar, korxonalar va davlat ehtiyojlarining umumiy xususiyatlari nimadan iborat? |
| tarkiban bir xil |
| cheksiz va chegarasiz |
| miqdoriy o'lchamga ega |
| miqdoran cheklangan |

**№26 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Quyidagi sanab o'tilganlardan qaysi birini transaktsion xarajatlarga qo'shmagan bo'lar edingiz? |
| tijorat menejeri uchun uyali telefon sotib olindi |
| shartnoma tuzmoqchi bo'lgan korxonaning moliyaviy ahvoli haqida ma'lumotlar to'plash |
| bitim tuzilganini tasdiqlash uchun notariusga xizmat haqi to'lash |
| bitim tuzayotgan korxona egasiga o'z mahsulotingizdan sovg'a qildingiz |

**№27 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Rivojlanish bosqichlariga tsivilizatsion yondoshuvning asoschisi kim? |
| Uolter Rostou |
| Alfred Marshall |
| Ronald Kouz |
| Artur Pigu |

**№28 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Qachonki iqtisodiy muammolar qisman bozor, qisman hukumat tomonidan yechilar ekan, bunday iqtisodiyot: |
| aralash iqtisodiyot |
| an'anaviy iqtisodiyot |
| bozor iqtisodiyoti |
| markazdan boshqariladigan iqtisodiyot |

**№29 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Barcha iqtisodiy tizimlarda asosiy muammolar: nima, qanday, qancha, kim uchun mikro va makro darajada yechiladi. Quyidagilardan qaysi biri mikro darajada yechiladi? |
| nima va qancha ishlab chiqarish zarur? |
| to'la bandlikni qanday ta'minlash mumkin? |
| inflyatsiyadan qanday qutilish mumkin? |
| iqtisodiy o'sishni qanday rag'batlantirish mumkin? |

**№30 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| TSivilizatsion yondoshuv bo'yicha jamiyat taraqqiyoti 5 bosqichga bo'linib, u quyidagilardan iborat: |
| an'anaviy jamiyat, o'tkinchi jamiyat, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati |
| an'anaviy jamiyat, o'tkinchi jamiyat, kommunistik jamiyat, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati |
| an'anaviy jamiyat, quldorlik, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati |
| o'tkinchi jamiyat, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati, kommunistik jamiyat |

**№31 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Ijtimoiy - iqtisodiy tizimlarning o'rin almashinish sabablarini formatsion yondashuvda qanday izohlanadi? |
| ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga ishlab chiqarish munosabatlarining mos kelmasligi o'rtasidagi ziddiyat |
| ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasiga ishlab chiqarish munosabatlarining mos kelishi |
| ishlab chiqarish texnologik usulining o'zgarishi |
| ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga ustqurmaning mos kelmasligi |

**№32 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiy tizim nima? |
| ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidir |
| jamiyatning asosiy yo'nalishidir |
| sotsial - iqtisodiy munosabatlar asosidir |
| siyosiy va ma'naviy munosabatlardir |

**№33 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot qanday tizim? |
| davlat tomonidan ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol ustidan to'liq nazorat o'rnatishga asoslangan |
| ishlab chiqarishni reja asosida yurgazishga asoslangan |
| yakka hokimlik asosida ishlab chiqarishni tashkil etishga asoslangan |
| ishlab chiqarishni ij*t*imoiy mulk va ijtimoiy mehnat asosida tashkil etishga qaratilgan |

**№34 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Aralash iqtisodiyot nima? |

| |
|---|
| buyruqli va bozor iqtisodiyoti qo'shilishi natijasida vujudga kelgan iqtisodiyot |
| turli mulk shakllariga va ularning teng huquqligiga asoslangan iqtisodiyot |
| ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot |
| an'ana va udumlarga asoslangan iqtisodiyot |

**№35 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiy tizimning qaysi nusxasi (modeli)da xususiy mulkning ustunligi va boshqarishning bozor mexanizmi ta'minlanadi? |
| sof kapitalizm |
| buyruqli iqtisodiyot |
| aralash iqtisodiyot |
| an'anaviy iqtisodiyot |

**№36 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish muammolari qaysi tizimga aloqador? |
| faqat bozor iqtisodiyotiga |
| faqat totalitar tizimlarga yoki markazlashgan rejalashtirish hukmron bo'lgan jamiyatlarga |
| faqat an'anaviy iqtisodiyotga |
| sotsial - iqtisodiy va siyosiy tashkil qilinishidan qat'iy nazar, har qanday jamiyatga |

**№37 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari unumdorligi pasayib borishi qonuni amal qiladi. U holda iqtisodiy o'sish qanday tarzda ta'minlanadi? |
| borgan sari ko'proq resurslar talab qilinadi, ularni tejab ishlatish yo'llari topiladi |
| resurslarni tejab - tergab ishlatish yo'llari topiladi |
| borgan sari kamroq resurslar talab qilinadi |
| qo'shimcha resurslarning o'sishi ishlab chiqarish umumiy hajmini ko'paytirmay, balki kamaytiradi |

**№38 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Industrial bosqich quyidagi qaysi asosiy xususiyati bilan boshqa bosqichlardan ajralib turadi? |
| iqtisodiyotda asosiy rolni mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishi o'ynashi ustunligi |
| xizmat ko'rsatish nihoyatda tez rivojlanishi ustunligi |
| moddiy ishlab chiqarish ustunligi |
| qishloq xo'jaligi ustun bo'lishi |

**№39 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Boylik faqat moddiy ishlab chiqarishda yaratiladi deb ta'kidlash nimaga olib keladi? |
| xizmatlar ko'rsatishni nazar - pisand qilmaslikka, bu sohaning rivojlanishini sekinlashtirishga |
| ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga |
| aholining to'la bandligini ta'minlashga |
| moddiy ishlab chiqarishda xarajatlarni pasaytirishga |

**№40 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Ishlab chiqarish omillari egasi: yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik hisobiga mos ravishda yaratilgan mahsulotdagi ulushini qaysi ketma - ketlik shaklida oladi? |
| yer rentasi, foiz - dividend, ish haqi, foyda |
| yer rentasi, ish haqi, foiz - dividend, foyda |
| yer rentasi, foiz - dividend, foyda, ish haqi |
| foyda, yer rentasi, ish haqi, foiz – dividend |

**№41 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi bu... |
| ishlab chiqarish natijasi (mahsulot)ning sarflangan xarajatlarga nisbati |
| yerga va kapitalga qilingan xarajatlar natijasi |
| ishlab chiqarish natijalarining mehnat xarajatlariga nisbati |
| ishlab chiqarish natijalarining kapital sarflariga nisbati |

**№42 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Naflilikning pasayib borishi qonunini amal qilishini izohlashga quyidagilardan qaysi biri to'g'ri kelmaydi? |
| universal qonun bo'lib, doimo amal qiladi |
| qisqa muddatli davrga xos |

| |
|---|
| ko'plab tovarlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi |
| naflilikni baholovchi yagona o'lchov yo'q |

**№43 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| F.Kene, A.Smit va D.Rikardolardan farqli ravishda A. Marshall boylikka: |
| inson ehtiyojlarini to'laroq qondirishi nuqtai - nazaridan qarash to'g'riroq bo'lardi, deb ta'kidlaydi |
| ijtimoiy zaruriy mehnat natijasi deb ta'kidlaydi |
| moddiy ishlab chiqarish natijasi deb ta'kidlaydi |
| qishloq xo'jaligida yaratilgan moddiy mahsulot deb ta'kidlaydi |

**№44 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Iqtisodiy faoliyat turlaridan qaysi birining natijasi bo'lib moddiy - ashyoviy ko'rinishdagi ne'matlar chiqadi? |
| ishlab chiqarishda |
| xizmat ko'rsatishda |
| iste'molda |
| iqtisodiy nafli ish bajarishda |

**№45 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Quyidagilarni qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanadi? |
| bino va inshootlar, mashinalar, asbob va uskunalar, xomashyo |
| xomashyo |
| mehnat quroli |
| pul mablag'lari |

**№46 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiy resurslar hisobiga olinadigan daromad turini aniqlang? |
| ish haqi, foiz, renta, me'yoridagi foyda |
| mukofot |
| dividend |
| foyda |

**№47 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozorda juda ko'p sotuvchilar va xaridorlar mavjud bo'lib, ulardan hech biri bozor baholariga o'z ta'sirini o'tkaza olmasa, hamda bozorga kirish uchun hech qanday to'siqlar bo'lmasa bu qanday bozorni xarakterlaydi? |
| sof raqobatli bozor |
| sof monopolistik bozor |
| monopolistik raqobatli bozor |
| milliy bozor |

**№48 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi? |
| ishlab chiqarish natijalari sarf - xarajatlar bilan taqqoslanadi |
| ishlab chiqarish natijalari jonli mehnat sarflari bilan taqqoslanadi |
| ishlab chiqarish natijalari kapital sarflari bilan taqqoslanadi |
| ishlab chiqarish natijalari aylanma mablag'lar qiymati bilan taqqoslanadi |

**№49 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Quyidagilardan qaysi biri mehnat kooperatsiyasini xarakterlaydi? |
| mehnatning alohida va bir - biriga bog'liq turlarining uyushishi |
| iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining bir - biriga bog'liqligining kuchayishi |
| mehnatning alohida faoliyat turlariga ajralishi |
| xodimlarning iqtisodiy faoliyatining biron turini bajarishga yoki mahsulotning alohida turlarini ishlab chiqarishga moslashuvi |

**№50 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi? |
| mahsulot miqdorining uni ishlab chiqarishga ketgan ish vaqtiga nisbati bilan |
| mahsulot miqdorining qilingan sarf - xarajatlarga nisbati bilan |
| mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan |
| mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yo'li bilan |

**№51 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Quyidagilardan qaysi biri noiqtisodiy ne’mat hisoblanadi? |
| quyosh nuri |
| harbiy kema |
| teatr, kontsert zali |
| ko’prik, yo’l |

**№52 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Buyuk Aristotel har xil iste’mol qiymatlari, ya’ni tovarlarni ayirboshlash uchun nima bo’lish kerak deydi? |
| tenglik bo’lishi, tenglik bo’lishi uchun esa taqqoslash mumkin bo’lishi kerak |
| tovar miqdorini o’lchashni bilish kerak |
| har xil tovarlarni ayirboshlash uchun miqdor jihatidan umumiy o’lchov birligini topish kerak |
| ayirboshlash uchun narxning adolatli bo’lishini ta’minlash kerak |

**№53 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Qaysi nazariyada tovarning qiymati unga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlari bilan o’lchanadi deyiladi? |
| klassik nazariyada |
| marjinal nazariyada |
| ratsionalistik nazariyasida |
| institutsional nazariyada |

**№54 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Qaysi nazariyada tovarning qiymati uning naf keltirishiga qarab, xaridorning iqtisodiy psixologik nuqtayi nazaridan aniqlanadi deyiladi? |
| marjinal nazariyada |
| klassik nazariyada |
| ratsionalistik nazariyasida |
| neoliberalizm nazariyasida |

**№55 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Naflilikning pasayib borishi qonuni amal qilishini izohlashda quyidagilardan qaysi biri to’g’ri kelmaydi? |
| amal qilish doirasi cheklangan bo’lib, shaxsiy ehtiyojni qondiradigan, eng avvalo, kundalik ehtiyojlarni qondiradigan tovar, xizmatlarga tegishliligi |
| qonunning amal qilishi qisqa muddatli davrga xos |
| universal qonun bo’lib, doimo amal qiladi |
| ko’plab tovarlarga nisbatan qo’llab bo’lmaydi |

**№56 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Hozirgi zamon pulining qadr - qimmati nima bilan o’lchanadi? |
| muomaladagi pul miqdori |
| narxlar darajasi |
| undagi oltin miqdori |
| mamlakatning oltin zaxirasi |

**№57 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Pul agregatlari, bu... |
| likvidlik darajasi turlicha bo’lgan barcha pul turlarining muayyan nisbatlardagi yaxlit massasi |
| naqd pullar va elektron pullarning ma’lum nisbatdagi pul massasi |
| cheklar, qimmatli qog’ozlar jamlanmasi |
| naqd pullar va qimmatli qog’ozlarning ma’lum nisbatdagi massasi |

**№58 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Demonitizatsiya deganda nima tushuniladi? |
| oltinning pul funktsiyasini bajarishini to’xtatilishi |
| pulning baho masshtabini almashtirish |
| qog’oz pulni erkin ravishda oltinga almashtirish |
| pulni yaroqsiz holga kelishi |

**№59 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Klassik iqtisod vakillari tovar qiymati qanday mehnat sarflarini ifodalaydi deb ko’rsatishgan? |
| ijtimoiy – zaruriy |

| |
|---|
| individual |
| zaruriy |
| qo’shimcha |

**№60 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Mehnat intensivligi nima? |
| mehnatning sarflanish tezligi va jadalligi |
| mehnatning aniq turining mahsuldorligi |
| qo’llaniladigan mehnat hajmining ortishi |
| qo’llaniladigan mehnat hajmining qisqarishi |

**№61 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog’liq? |
| qiymat o’lchovi |
| muomala vositasi |
| to’lov vositasi |
| jamg’arma vositasi |

**№62 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Natural xo’jaligi nima? |
| bozorda sotish uchun emas, balki xo’jalikning o’z xodimlari va ishlab chiqaruvchilarning iste’moli uchun mahsulotlar ishlab chiqaradigan xo’jalik |
| jamiyat uchun mahsulotni natural holda ishlab chiqaruvchi xo’jalik |
| ishlab chiqarishni tashkil etish mashina va texnikalarga emas, qo’l mehnatiga asoslangan xo’jalik |
| aholi va tashkilotlarga sotish uchun iste’mol buyumlari ishlab chiqaruvchi xo’jalik |

**№63 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Pulning vazifasi nimadan iborat? |
| yagona hisob - kitob yurgizish, jamg’arma, muomala, to’lov vositasi vazifasini bajaradi |
| boylik to’plash vositasi |
| pul iste’mol bilan ijtimoiy talabga bo’lgan investitsiya omili |
| ijtimoiy taklif va almashuv uchun zarur bo’lgan miqdorni belgilaydigan kapital qo’yilmalar omili |

**№64 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qaysi mulk shakli eng ko’p tarqalgan hisoblanadi? |
| aktsionerlik jamiyati |
| kooperativ |
| individual va xususiy mulk |
| qo’shma korxonalar |

**№65 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish natijalari o’zlashtiriladi; |
| resurslar kimning mulki ekanligiga ko’ra |
| mehnat omili tomonidan |
| moddiy resurs egalari tomonidan |
| davlat tomonidan |

**№66 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, bu ... |
| davlat mulkini nodavlat mulk va boshqa xo’jalik yuritish shakllariga aylantirish |
| davlat mulkini fuqarolarga sotish |
| davlat mulkini imtiyozli bo’lib berish |
| davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish |

**№67 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Manfaatlarning bir tomondan ob’ektivligiga sabab, ... |
| ehtiyojlarning ob’ektivligi va uni qondirish zaruriyati |
| har bir kishining inson sifatida ehtiyoji mavjudligi |
| insonlar uchun umumbashariy qadriyatlarning umumiyligi |
| kishilarning manfaati mos kelishi zaruriyati |

**№68 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Manfaatlarning ikkinchi tomondan sub'ektivligiga sabab, .. |
| manfaat har bir insonning o'zida mujassamlashgan |
| insonning shaxs, mulk egasi sifatida manfaatlari mavjudligi |
| insonlar uchun umumbashariy qadriyatlarning mavjudligi |
| sub'ektning shaxsiy, oila, jamoa, jamiyat manfaatlarini mujassamlashtirishi |

**№69 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Aktsionerlik jamiyatida mulk egalari kim? |
| aktsionerlar |
| jamiyatning prezidenti |
| boshqaruv a'zolari |
| ijrochi direktor va menejerlar |

**№70 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Mulkiy munosabatlarning qaysi jihati to'liq mulkdorlik mavqeini ta'minlaydi? |
| mulkni tasarruf qilish |
| mulkni ijaraga olish |
| mulkdan foydalanish |
| mulkni o'zlashtirish |

**№71 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiy munosabatlar tizimida mulkchilikning o'rni qanday? |
| mulkchilik - ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakterini belgilaydi |
| boylik manbai |
| mulkchilik - mulkka egalik munosabatini ifodalaydi |
| iste'molchi talabini qondirish vazifasini bajaradi |

**№72 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozor munosabatlariga o'tish davrida Respublika iqtisodiyotining negizini qanday mulk tashkil qiladi? |
| xilma - xil mulk |
| davlat mulki |
| jamoa mulki |
| chet elliklar mulki |

**№73 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Mulkning quyidagi shakllaridan qaysi biri alohida olingan mulk ob'ekti va uning natijalari turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi? |
| aralash |
| xususiy |
| shaxsiy |
| davlat |

**№74 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Mulkning davlat tasarrufidan chiqarishning qaysi yo'li erkin tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochib berishni ko'zda tutadi? |
| xususiylashtirish |
| hissadorlik jamiyatiga aylantirish |
| jamoa mulkiga aylantirish |
| chet elliklarga sotish |

**№75 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 1; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| O'zbekistonda xususiylashtirishga yondoshishning muhim xususiyati nimadan iborat? |
| dasturlar asosida bosqichma - bosqich amalga oshiriladi |
| adresli yo'naltirilganligi |
| chet el tajribasi bo'yicha |
| vaucher orqali |

**№76 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Sotsialistlar inson tengligi deganda, eng avvalo, birinchi o'ringa ...ni qo'yishgan. |

| |
|---|
| moddiy tenglik |
| huquqiy tenglik |
| qonunlar oldidagi tenglik |
| siyosiy huquqda tenglik |

**№77 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Davlat mulk monopoliyasi va majburiy rejalashtirishga asoslangan tizimning tekischilik g’oyasi bilan qo’shilib ketishi quyidagilarga olib kelgan: |
| moddiy ne’matlarning noiqtisodiy taqsimoti |
| moddiy ne’matlarning adolatli taqsimoti |
| nomoddiy ne’matlarning adolatli taqsimoti |
| nomoddiy ne’matlarning iqtisodiy taqsimoti |

**№78 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozor (aralash) iqtisodiyoti asosini ... tashkil etadi. |
| mulkchilikning turli - tumanligi va ularning tengligi qonun tomonidan birday muhofaza qilinishi |
| xususiy mulkchilikning qonun asosida alohida qo’llab quvvatlanishi |
| hamkorlikdagi mulk alohida qo’llab - quvvatlanishi |
| jamoa mulkiga alohida e’tibor berilishi |

**№79 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch, bu - ... |
| iqtisodiy faoliyat erkinligi, raqobat, daromadlarni cheklanmaganligi |
| iqtisodiy faoliyat erkinligi, xususiy mulkning ustunligi, daromadlarni cheklanmaganligi |
| raqobat, davlatning qo’llab - quvvatlashi, daromadlarni cheklanmaganligi |
| iqtisodiy faoliyati erkinligi, davlatning qo’llab - quvvatlashi, daromadlarning cheklanmaganligi |

**№80 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyotining ob’ekti: |
| tovar, pul (agregati) |
| tovar, korxona |
| tovar, jamoa xo’jaligi |
| pul, pul kompleksidir |

**№81 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyotining sub’ekti: |
| firma, korxona, uy xo’jaligi, davlat, moliyaviy institutlar |
| firma, korxona, uy xo’jaligi, tovar |
| firma, korxona, uy xo’jaligi, davlat, pul |
| firma, korxona, uy xo’jaligi, moliyaviy institutlar |

**№82 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyotining muhim afzalliklaridan biri cheklangan resurslar sharoitida: |
| iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash |
| resurslarni qimmatga sotish |
| resurslarni arzon sotib olish |
| resurslarni qimmatga sotib olish |

**№83 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Faoliyat natijasi qanday bo’lishi ehtimolini bilgan holda, bari bir oqibati qanday tugashini aniq, aytib bo’lmaydigan vaziyat, ya’ni noaniqlik ... ni ifodalaydi. |
| tavakkalchilik xatari |
| tavakkalchilik yutug’i |
| risk mardlik belgisi |
| tavakkalchilik natijasi |

**№84 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Biz ko’pincha sifatsiz tovar sotib olganimizda aldagan sotuvchini jazolashga urinmaymiz. Sababi, ... |
| olgan nafimiz, qilgan transaktsion xarajatlarimizni qoplamaydi |
| yuz - xotir qilamiz |
| rahmimiz keladi |

| |
|---|
| asabimizni buzishni xohlamaymiz |

**№85 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| CHayqovchilik faoliyati ... |
| narxlarning beqarorligi tamoyilini kuchaytiradi |
| qonun asosida ish yurituvchi tadbirkorlar uchun riskni orttiradi |
| iqtisodiy bum va retsessiyaga olib keladi |
| doimo foyda olishga olib keladi |

**№86 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Quyidagi ta'riflardan qaysi biri bozor iqtisodiyotining mohiyatini to'laroq xarakterlaydi? |
| bu xususiy mulk ustunligiga asoslangan hamda iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi yordamida boshqariladigan va tartibga solinadigan iqtisodiyotdir |
| mehnat taqsimoti mavjud bo'lgan iqtisodiyot |
| iqtisodiy sub'ektlar faoliyati erkin amalga oshiriladigan iqtisodiyot |
| urf - odat, udumlar va an'analariga asoslangan iqtisodiyot |

**№87 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyotining eng asosiy sharti (tamoyili) nima? |
| tadbirkorlik va tanlash erkinligi |
| daromadlarni bir tekis taqsimlash |
| ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalanish |
| iqtisodiyot rivojlanishini barqarorlashtirish |

**№88 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning birlamchi asosi ekanligi qaysi tamoyilda o'z aksini topgan? |
| Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi |
| Davlat – bosh islohotchi |
| Qonunlar ustuvorligi |
| Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish |

**№89 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Nima sababdan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilishga alohida ahamiyat berildi? |
| aholi turmushi darajasining haddan tashqari pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun |
| ishsiz qolgan aholini daromad bilan ta'minlash maqsadida |
| ko'p bolali oilalarga yordam berish maqsadida |
| bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish tamoyilini amalga oshirish uchun |

**№90 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Besh tamoyilning hammasi ham demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli isloh qilib borishda birday muhim ahamiyatga egadir, shu bilan birga .. |
| Bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Bu yetakchi tamoyillardan biridir. U iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi», – deb ta'kidlaydi |
| Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi |
| Davlatning bosh islohotchi bo'lishi |
| Iqtisodiyotni mafkuradan batamom holi qilish ustuvorligi |

**№91 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozor iqtisodiyotiga o'tishning rivojlangan mamlakatlar yo'li yoki klassik yo'li: |
| 3 guruhga |
| 2 guruhga |
| 4 guruhga |
| 5 guruhga |

**№92 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida isloh qilishning muhim yo'nalishini aniqlang? |
| o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy asosini mustahkamlash |
| aralash iqtisodiyotni shakllantirish |
| ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish |
| iqtisodiyotni sanoatlashtirish |

**№93 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning qaysi tamoyilli bozor munosabatlariga o'tishning izchilligini ta'minlaydi? |
| bozor munosabatlarini bosqichma - bosqich qaror toptirish |
| kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi |
| iqtisodiyotning mafkuradan ustunligi |
| davlatning bosh islohotchi bo'lishi |

**№94 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Davlat mulkini xususiylashtirishning dastlabki bosqichida qanday vazifa amalga oshirildi? |
| kichik xususiylashtirish amalga oshirildi |
| ommaviy xususiylashtirish amalga oshirildi |
| chek vositasida xususiylashtirish amalga oshirildi |
| ko'p ukladli iqtisodiyot real shakllandi |

**№95 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Respublikada narxlar qaysi davrdan boshlab erkinlashtirila boshladi? |
| 1992 yildan |
| 1991 yildan |
| 1994 yildan |
| 1995 yildan |

**№96 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Qaysi bozor monopolist bo'lishi mumkin? |
| qishloqdagi benzin quyish shoxobchasi |
| don bozori |
| gullar bozori |
| shokolad mahsulotlari bozori |

**№97 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Mehnat bozori boshqa bozorlardan, |
| ish kuchi uning egasining mulki bo'lib qolaverishi va ishga yollanishida mehnat shartnomalari tuzilishi bilan farqlanadi |
| mehnat omili egasi, ish kuchi bilan unga muhtoj o'rtasidagi munosabati bilan farqlanadi |
| ishga vaqtinchalik mehnat shartnomalari asosida yollanish bilan farqlanadi |
| shartnoma tuzilgach mehnat omiliga aylanishi bilan farqlanadi |

**№98 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Birlamchi va ikkilamchi bozorlar... |
| qimmatli qog'ozlar bozoriga xos |
| ssuda kapitali bozoriga xos |
| valyuta bozoriga xos |
| sug'urta bozoriga xos |

**№99 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Sof iqtisodiy ma'noda «bozor» tushunchasi nimani anglatadi? |
| ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) va iste'molchi (xaridor)larning tovarlarini ayirboshlash xususidagi harakatini o'zaro kelishtiruvchi mexanizmlar, tartiblar va infrastrukturaviy tuzilmalar tizimini |
| sotuvchi va xaridorlar to'planib, ayirboshlashni amalga oshiradigan joyni |
| bozor sub'ektlari iqtisodiy natijalarining amalga oshirishini |
| tijorat do'konini |

**№100 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Bozorning qaysi turida sotuvchi va xaridorlar bir - biri bilan aktsiya, obligatsiya kabi qimmatli qog'ozlar orqali bog'lanadi? |
| kapital (fond) bozorida |
| chet el valyutalari bozorida |
| xomashyo birjalarida |
| resurslar bozorida |

**№101 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi |
| taklif egri chizig’ining o’ngga siljishiga olib keladi |
| muvozanat narxining o’sishiga olib keladi |
| taklif egri chizig’ining chapga siljishiga olib keladi |
| talab egri chizig’ining o’ngga siljishiga olib keladi |

**№102 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Ishlab chiqaruvchilar tayyorlagan mahsulotlariga ko’zda tutilgan muddatdan nisbatan avvalroq yuqori narx belgilashga majbur bo’lishdi, u holda ... |
| talab qisqaradi |
| talab ortadi |
| taklif kamayadi |
| talab o’zgarmaydi |

**№103 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Aytaylik, qurg’oqchilik sababli bug’doy taklifi kamaydi. Agarda bug’doy non tayyorlash uchun asosiy xom - ashyo bo’lsa, iste’molchilar nonning o’rniga kartoshka iste’molini ko’paytirishlari mumkinligi kutilsa, u holda bug’doy narxi. |
| ortadi, non taklifi pasayadi, kartoshkaga talab esa o’sadi |
| ortadi, non taklifi ortadi, kartoshkaga talab ortadi |
| ortadi, non taklifi pasayadi, kartoshkaga talab kamayadi |
| tushadi, non taklifi ortadi, kartoshkaga talab o’sadi |

**№104 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Quyidagi tushunchalardan qaysi biri odamlarni biron narsa olish va haq to’lash qobiliyatlarini ifodalaydi? |
| talab |
| ehtiyoj |
| o’zini ko’rsatish |
| zaruriyat |

**№105 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Tovarning narxi 1,5 ming so’mdan 2 ming so’mga ko’tarildi, talab hajmi esa 1000dan 900 donaga tushdi, deylik. U holda narxga nisbatan talab egiluvchanligi ... ga teng. |
| 0,37 |
| 3,00 |
| 2,71 |
| 0,33 |

**№106 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Agar tovarning narxi 1 % ga tushishi unga bo’lgan talabni 2 % ga ortishiga olib kelsa, u holda talab: |
| egiluvchan |
| noegiluvchan |
| yagona egiluvchan |
| mutloq egiluvchan bo’ladi |

**№107 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Agar narx 5%ga pasayishi, umumiy taklif hajmining 8%ga qisqarishiga olib keladi, u holda taklif: |
| egiluvchan |
| noegiluvchanl |
| mutloq noegiluvchan |
| mutloq egiluvchan |

**№108 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Taklif qonuni, narxlarning o’sishi, boshqa sharoit (omillar) o’zgarmagani holda ... namoyon bo’ladi |
| taklif hajmining o’sishida |
| taklifning o’sishida |
| taklifning kamayishida |
| taklifning o’zgarmasligida |

**№109 Fan bobi - 1; Fan bo’limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Quyidagi sanab o’tilganlardan qaysi biri xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlik faoliyatiga mos emas: |

| |
|---|
| kapital omiliga jamoa egalik qiladi |
| xususiy mulkka asoslanadi |
| ishlab chiqarish natijasi mulk egasiga tegishli bo'ladi |
| mustaqil erkin faoliyat yuritadi |

**№110 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Asosiy va aylanma kapitalning farqlanuvchi jihatlariga quyidagilardan qaysi birini qo'shib bo'lmaydi? |
| amortizatsiya ajratmalarini hisoblash |
| o'z qiymatlarini ishlab chiqarish natijasi - mahsulotga o'tkazishi |
| doiraviy aylanishda qatnashishiga ko'ra |
| ishlab chiqarish jarayonida o'z xossasini o'zgartirishi |

**№111 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Tadbirkorlikka iqtisodiy adabiyotlarda uch jihatdan qaraladi: |
| iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritish uslubi, iqtisodiy fikr yuritishning o'ziga xos tipi sifatida |
| iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritish uslubi, mulk egasi sifatida |
| xo'jalik yuritish uslubi, iqtisodiy fikr yuritishning o'ziga xos tipi sifatida, mulk egasi sifatida |
| xo'jalik yuritish uslubi, mulk egasi, daromad topishning o'ziga xos tipi sifatida |

**№112 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Jahon iqtisodiy adabiyotida tadbirkorlikning uchta funktsiyasi ajratib ko'rsatiladi: |
| resurslar bilan ta'minlash, tashkilotchilik, ijodkorlik |
| resurslar bilan ta'minlash, kapital bilan ta'minlash, ijodkorlik |
| kapital bilan ta'minlash, xomashyo bilan ta'minlash, ijodkorlik |
| resurs bilan ta'minlash, tashkilotchilik, omillarni birlashtirish |

**№113 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Firmaning doimiy xarajatlari bu – |
| firma mahsulot ishlab chiqarmasa ham sarflanadigan xarajatlar |
| resurslarni sotib olish xarajatlari |
| mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar |
| mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liq xarajatlar |

**№114 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 1;**

| |
|---|
| Firmaning o'zgaruvchi xarajatlari bu – |
| mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liq xarajatlar |
| mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'rtacha xarajatlar |
| me'yoriy xarajatlar |
| firma mahsulot ishlab chiqarmasa ham sarflanadigan xarajatlar |

**№115 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 3;**

| |
|---|
| Me'yoriy xarajatlar bu – |
| qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan qo'shimcha xarajatlar |
| qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan maksimal xarajatlar |
| qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun doimiy xarajatlar |
| qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar |

**№116 Fan bobi - 1; Fan bo'limi - 2; Qiyinlik darajasi – 2;**

| |
|---|
| Firmaning qisqa muddatli davrdagi umumiy (yalpi) xarajatlari (TC) bu – |
| doimiy (FC) va o'zgaruvchi (VC) xarajatlar yig'indisi |
| doimiy (FC) va me'yoriy(MC) xarajatlar yig'indisi |
| o'rtacha o'zgaruvchi (AVC) va o'rtacha doimiy xarajatlar (AFC) yig'indisi |
| **Quyidagi ifodalardan qaysi biri umumiy xarajatni aks ettiradi?** |
|---|
| FC + VC |
| Δ MC |
| VC – FC |
| FC + VC +MC |

**№ 107 Fan bobi-19; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Qisqa muddatli oraliqda firma 500 birlik mahsulot ishlab chiqardi. O‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar 2 dollarni, o‘rtacha o‘zgarmas xarajatlar 0,5 dollarni tashkil etadi. Yuqoridagi raqamlardan foydalanib umumiy xarajatlarni hisoblang:** |
| 2,5 dollar |
| 1250 dollar |
| 1,1 dollar |
| 1100 dollar |

**№ 108 Fan bobi-19; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Agar avc(10)=5 000; fc=20 000 bo‘lsa, ac(10)=?** |
| 25 000 |
| 17 000 |
| 28 000 |
| 30 000 |

**№ 109 Fan bobi-19; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Agar ac(20)=500; mc(21)=11 000 bo‘lsa ac(21)=?** |
| 1 000 |
| 500 |
| 21 000 |
| 11 500 |

**№ 110 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Agar tc(3)=10 000; mc(4)=2 200; mc(5)=2 100 va mc(6)=1 900 bo‘lsa, ac(6)=?** |
| 2 700 |
| 1 900 |
| 1 800 |
| 2 000 |

**№ 111 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Ishlab chiqaruvchining umumiy xarajatlari qaysi bandda to‘g‘ri keltirilgan?** |
| FC+VC |
| TC-FC |
| AVC+ATC |
| MC+VC |

**№ 112 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Agar firma ishlab chiqarayotgan mahsulotini 40 birlikdan 41 birllikka oshirsa, va buning natijasida umumiy xarajatlar miqdori 262 birlikdandan 281 birlikgacha ko‘tarilsa, qo‘shimcha qo‘shilgan bir birlik mahsulotga ketgan chekli xarajat miqdori aniqlansin:** |
| 262 birlik |
| 211 birlik |
| 267 birlik |
| 350 birlik |

**№ 113 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Quyidagi fikrlardan qaysi biri noto‘g‘ri?** |
| Korporatsiya - paychilikka asoslangan jamiyat bo‘lib, har bir mulkdor mas’ulyati ushbu korxonaga qo‘shgan hissasi bilan cheklanadi |
| Foyda olmaydigan tashkilotlar - maschit, kasalxona, kollejlar, barcha kasaba uyushmalari va xayriya jamiyatlari |
| Al’ternativ xarajatlar - firmaning resurslaridan eng yaxshi variantdan foydalanishi bilan bog‘liq yo‘qotilgan imkoniyatlardir |
| Firma – bu ishlab chiqarish resurslari egalarining qarorlarini va manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi insitutsional tuzilma hisoblanadi |

**№114 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Umumiy xarajatlar $tc=q^3-90q^2+2700q+75$ ko‘rinishida berilgan ishlab chiqarish hajmi(q) qancha bo‘lganda chekli xarajat minimal bo‘ladi?** |
| 80 ta |
| 90 ta |
| 30 ta |

| |
|---|
| 95 ta |

**№ 115 Fan bobi-20;  Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Bozor tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan holda firma yopiladi, agar:** |
|---|
| Tushum hajmi umumiy xarajatlarni emas, balki faqat o‘zgaruvchan xarajatlarni qoplasa |
| Tushum o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarni qoplaydi, lekin umumiy xarajatlarni qoplamasa |
| O‘rtacha tushum o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlardan yuqori, lekin o‘rtacha umumiy xarajatlardan past bo‘lsa |
| O‘rtacha tushum o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlardan past bo‘lsa |

**№ 116 Fan bobi-20;  Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Firma o‘z foydasini maksimallashtirishi uchun mahsulot ishlab chiqarishning shunday hajmini tanlashi kerakki, bunda:** |
|---|
| Umumiy tushum va umumiy xarajatlar o‘rtasidagi farq eng katta (maksimal) bo‘lishi kerak; |
| O‘rtacha xarajatlar eng past darajada bo‘lishi kerak; |
| Ishchilar soni va mashinalar soni teng bo‘lishi kerak; |
| Faqat mahsulot sotishdan tushgan tushum maksimal bo‘lishi kerak. |

**№ 117 Fan bobi-20;  Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agar firma barcha ishlab chiqarish resurslarini 20 foizga oshirganda, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham aynan 20 foizga ko‘paysa, bu qanday hodisa?** |
|---|
| O‘zgarmas masshtab samarasi; |
| Musbat masshtab samarasi; |
| Manfiy masshtab samarasi; |
| Omillarning kamayib borish qonuni. |

**№ 118 Fan bobi-20;  Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Ikki tomonlama monopoliyada:** |
|---|
| Sotuvchi iste’molchiga qaraganda ko‘proq naf ko‘radi |
| Iste’molchi sotuvchiga qaraganda ko‘proq naf ko‘radi |
| Narxni doimiy bir xilda aniqlash mumkin emas |
| Oldi-sotdi hajmini aniqlash mumkin emas |

**№ 119 Fan bobi-20;  Bo‘lim-1;  Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Mukammal raqobatlashgan bozorda firmaning talab egri chizig‘i:** |
|---|
| Chekli va o‘rtacha tushum egri chiziqlari bilan mos tushadi |
| O‘rtacha va umumiy tushum egri chiziqlari bilan mos tushadi |
| Chekli va umumiy tushum egri chiziqlari bilan mos tushadi |
| Umumiy tushum egri chizig‘i bilan mos tushadi |

**№120 Fan bobi-21; Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Foydasini maksimallashtirayotgan firma qanday hollarda ishlab chiqarish hajmini o‘zgarishsiz qoldirishi mumkin?** |
|---|
| MR>MC va TR>TC |
| MR=MC va TR>TC |
| MR>MC va TR=TC |
| MR-MC maksimal holatda |

**№ 121 Fan bobi-21;  Bo‘lim-3;  Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Qisqa muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda firmaning taklif egri chizig‘i:** |
|---|
| Mc egri chizigidan yuqorida yotgan avc egri chizig‘iga mos keladi |
| Bozor taklifi egri chizig‘i orqali aniqlanadi |
| Avc egri chizig‘idan yuqorida yotgan mc egri chizig‘iga mos tushadi |
| Firma mahsulotiga talab egri chizig‘i bilan mos keladi |

**№ 122 Fan bobi-21;  Bo‘lim-3;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Mikroiqtisodiyotda uzoq muddatli oraliq deganda nima tushuniladi?** |
|---|
| Firma barcha ishlab chiqarish omillari va resurslarini o‘zgartira oladigan vaqt oralig‘i; |
| Kamida besh yildan ortiq davom etadigan vaqt; |
| Faqat ishchilar sonini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan davr; |
| Mahsulot narxlari o‘zgarmas bo‘lib qoladigan davr. |

**№ 123 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Monopolistik raqobatni mukammal raqobatdan ajratib turadigan asosiy belgi:** |
|---|
| Raqobatlashuvchi firma bir xil mahsulotni emas, balki tabaqalashgan mahsulotni ishlab chiqaradi |
| Monopolistik raqobat sharoitida firmaning talab egri chizig‘i bozor talabi egri chizig‘i bilan mos tushadi |
| Uzoq muddatli monopolistik raqobat sharoitida firmalar iqtisodiy foyda oladilar, mukammal raqobat sharoitida esa bunday bo‘lmaydi |
| Monopolistik raqobat bozoriga kirish uchun jiddiy to‘siqlar mavjud |

**№ 124 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Mukammal raqobat sharoitida ishlab chiqarishning doimiy omiliga solinadigan soliq stavkasi ko‘tarilganda, firma ishlab chiqarish hajminini:** |
|---|
| Ko‘paytiradi |
| Qisqartiradi |
| O‘zgartirmaydi |
| Aniq qaror qabul qilmaydi |

**№ 125 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Raqobatli firmadan farqli ravishda monopolist:** |
|---|
| Mahsulotga har qanday narxni qo‘yishi mumkin |
| MR=MC da foydasini maksimaltiradi |
| Mahsulotning har qanday hajmini ishlab chiqarishi va uni xohlagan narxda sotishi mumkin |
| Ma’lum bir bozor talabida maksimal foyda beradigan narx va ishlab chiqarish hajmi konbinatsiyasini tanlaydi |

**№126 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Tabiiy monopoliya, bu-** |
|---|
| Shahar metrosi |
| Opek -xalqaro neft karteli |
| IBM -kompaniyasi |
| Hamkorbank |

**№ 127 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Narx diskriminatsiyasi-bu:** |
|---|
| Yuqori sifatli tovarga yuqori narx belgilash |
| Yangi modeldagi tovarga yuqori narx belgilash |
| Ishchilarning malakasiga qarab ish haqi berish |
| Bir xil mahsulotni har xil haridorlarga turli narxda sotish |

**№ 128 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Raqobatlashuvchi firmadan farqli ravishda monopolist**: |
|---|
| Narxni yuqori o‘rnatib ko‘proq foyda olishga intiladi |
| Foydani maksimallashtirishga intiladi |
| Mahsulotni ko‘proq miqdorda ishlab chiqarib, yuqori narxda sotishga intiladi |
| MR=P bo‘lgan holatda mahsulot ishlab chiqarishga intiladi |

**№129 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Foydani makismallashtirishga harakat qilayotgan monopolist o‘z mahsulotining bahosini pasaytiradi, agar:** |
|---|
| O‘rtacha xarajatlar pasaysa |
| Reklama xarajatlari o‘sib borsa |
| Chekli daromad chekli xarajatlardan yuqori bo‘lsa |
| Chekli daromad o‘zgaruvchan xarajatlarga teng bo‘lsa |

**№ 130 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Qisqa muddatli oraliqda foydani maksimallashtirishga harakat qilayotgan raqobatlashuvchi firma, qanday hollarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirmaydi?** |
|---|
| Mahsulotning narxi o‘rtacha xarajatlar minimumidan past bo‘lganda |
| O‘rtacha doimiy xarajatlar mahsulot narxidan yuqori bo‘lganda |
| Mahsulotning narxi o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar minimumidan past bo‘lganda |
| Umumiy daromad umumiy xarajatlarni qoplay olmasa |

**№ 131 Fan bobi-2; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Quyidagi bozorlardan qaysi biri mukammal raqobatlashgan bozorga yaqin turadi.** |
|---|

| |
|---|
| Qimmatbaho qog‘ozlar bozori |
| Po‘lat bozori |
| Sartaroshlik xizmati bozori |
| Benzin bozori |

**№ 132 Fan bobi-2; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agar mahsulotning bahosi ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan o‘rtacha umumiy xarajatlarni qoplamaydigan bo‘lsa, u holda firma:** |
|---|
| Ishlab chiqarishni zudlik bilan to‘xtashi kerak |
| Mahsulot ishlab chiqarish hajmini p > avc bo‘lgani holda p=mc tenglik ta’minlanguncha tanlashi kerak |
| Yangi texnologiyani tanlash kerak |
| Ustama **xarajatlar**ni qisqartirish lozim |

**№133 Fan bobi-2; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Maksimal foydani ko‘zlab harakat qilayotgan firma qo‘shimcha ishchilarni yollaydi, agar:** |
|---|
| Umumiy tushum umumiy xarajatdan past bo‘lsa |
| Qiymat ko‘rinishidagi chekli mahsulotning miqdori pasayganda |
| Qiymat ko‘rinishidagi chekli mahsulotning miqdori ko‘tarilganda |
| Pul ko‘rinishidagi mehnatning chekli mahsuloti ish haqidan yuqori bo‘lsa. |

**№ 134 Fan bobi-21; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Aytaylik, ikkita ishchi kuniga 46 dollar haq olishadi. Raqobatlashuvchi firma uchunchi ishchini yollaganda umumiy haq miqdori kuniga 60 dollarni tashkil etadi. Shuni qayd etish lozimki:** |
|---|
| Oldingi har ikki ishchining chekli mahsuloti 23 ga teng |
| Oldingi har ikki ishchining qiymat ko‘rinishidaga chekli mahsuloti 23 ga teng |
| Yollangan uchunchi ishchining qiymat ko‘rinishidagi chekli mahsuloti 14 ga tengdir |
| Firma uchinchi ishchini yollamasligi kerak |

**№ 135 Fan bobi-11; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Tarmoqda 1000ta firma faoliyat ko‘rsatadi. Har bir firma oyida 5 birlik mahsulot ishlab chiqarganda, chekli xarajati 2 dollarni tashkil etadi. 6 birlik uchun 3 dollar, 7 birlik mahsulot ishlab chiqarganda 5 dollar to‘g‘ri keladi. Agar mahsulotning bozor narxi 3 dollarni tashkil etsa, u holda, tarmoqning bir oylik ishlab chiqarish hajmi qanchani tashkil etadi?** |
|---|
| 5000 birlikdan ko‘p emas |
| 6000 birlikni |
| 3000 birlikni |
| 7000 birlikni |

**№ 136 Fan bobi- 21; Bo‘lim-1 ; Qiyinchilik darajasi-1 ;**

| **Mahsulot bozorda muvaffaqiyat qozonsa uning har birligidan olinadigan daromad 30 ming so‘mni, ammo muvaffaqiyat qozona olmasa har birligidan 5 ming so‘m daromad olinadi. Mahsulotning bozorda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli 0.8 ga teng. Kutiladigan daromad miqdori qaysi bandda to‘g‘ri keltirilgan?** |
|---|
| 25 ming |
| 30 ming |
| 26 ming |
| 28 ming |

**№137 Fan bobi-6; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| **Asimmetrik axborotlashgan bozor bu-** |
|---|
| Bozordagi ayrim subyektlar muhim axborotga ega qolganlari esa bexabar bo‘lgan bozor |
| Bozordagi barcha subyektlar yetarli ma’lumot bilan ta’minlangan bozor |
| Bozor subyektlari o‘rtasida bo‘ladigan savdo-sotiqda ularning hech biri kerakli, muhim axborotga ega emas |
| Bozor subyektlari o‘rtasida bo‘ladigan savdo |

**№138 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| **Golland auksionida birinchi e’lon qilingan mahsulot narxining necha foizidan tushib ketsa mahsulot auksiondan chiqarib yuboriladi?** |
|---|
| 20% |
| 25% |
| 14% |
| 35% |

**№ 139 Fan bobi-3 ; Bo‘lim-3 ; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| **Diversifikatsiyaya bu-** |
|---|
| Tavakkalchilkni kamaytirishga qaratilgan faoliyat turi |
| Qimmatli qog‘ozlar portfeli qiymatini aniqlash jarayoni |
| Fond bozori operatorlari o‘rtasidagi hisob-kitob harakati |
| Bir xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish |

**№ 140 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| **Tavakkalchilikni qo‘shish usullarini izohlovchi javobni belgilang** |
|---|
| Aktivlarni tavakkalchlik va tavakkalchiliksiz aktivlarga bo‘linishi |
| Tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun maxsus fond tashkil qilinishi |
| Tavakkalchilik aktivlardan tashkil topgan qimmatli qog‘ozlar aktivi |
| Qimmatli qog‘ozlar aktivi |

**№ 141 Fan bobi- 3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Tavakkalchilikni taqsimlash usullari-** |
|---|
| Har bir mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar katta bo‘lmagan holatda, ishtrokchilar o‘rtasida tavakkalchilik zararining taqsimlanishi |
| Iste’molchi o‘z tavakkalchiligini boshqa barcha iste’molchilar o‘rtasida taqsimlaydi |
| Uyushma a’zolari barcha tavakkalchilikni o‘z zimmalariga olishadi |
| Uyushma a’zolari qo‘shgan ulushlari bo‘yicha tavakkalchilikni o‘z zimmalariga olishadi |

**№ 142 Fan bobi-3; Bo‘lim- 2; Qiyinchilik darajasi- 3;**

| **Quyida berilgan javoblardan diversifikatsiyayaga qaratilgan strategiyani aniqlang.** |
|---|
| Tovar va xizmatlar xillarni kengaytirish |
| Tovar ishlab chiqarish hajmini oshirish |
| Istiqbolli ishlab chiqarish yo‘nalishini rivojlantirish |
| Tovar ishlab chiqarish hajmini qisqartish |

**№ 143 Fan bobi- 3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Ingliz auksioni bu-** |
|---|
| Narx pastdan yuqoriga ko‘tarilgan auksion |
| Narx yuqoridan pastga tushadigan auksion |
| Narx yuqoridan pastga tushadigan auksion va yopiq auksion |
| Yopiq auksion |

**№ 144 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Ma’naviy tavakkalchilik bu-** |
|---|
| Ongli ravishda yetkazilgan zararni to‘liq sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplanib berishga bo‘lgan ishonchning namoyon bo‘lishi |
| Assimmetrik axborotlarning namoyon bo‘lishi |
| Ayirboshlov jarayonida tomonlardan birining harakati yuzasidan paydo bo‘lgan tavakkalchilik |
| Yetkazilgan zararni sug‘urta kompaniyasi tomonidan to‘liq qoplanmasligi |

**№ 145 Fan bobi-23 ; Bo‘lim-3 ; Qiyinchilik darajasi-3 ;**

| **Quyida berilganlardan qaysi biri mahsulot sifati to‘g‘risida signal bo‘la olmaydi** |
|---|
| Sug‘urtalanishi |
| Mahsulot narxi |
| Firma obro‘si |
| Mahsulot reklamasi |

**№ 146 Fan bobi-4; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Agar aktivlardan olinadigan dividend 5 % ga ortsa, va boshqa sharoitlar o‘zgarishsiz qolganda qaytim normasi qanday o‘zgaradi?** |
|---|
| O‘zgarmaydi |
| 5 % ga kamayadi |
| 3 % ga ortadi |
| Sotib olingan aktiv narxiga bo‘g‘liq bo‘lib qoladi |

**№ 147 Fan bobi-4; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Qaysi bandda tavakkalchilikni pasaytirish shartnomalari keltirilgan?** |
|---|
| Xedjerlashtirish |
| Opsionlar |
| Sotib olingan aktiv |
| Fyucherslar |

**№ 148 Fan bobi- 4; Bo‘lim- 2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Individning lotareya yutib chiqib bosh sovrin, ya’ni 20 mln so‘mni olish ehtimolligi 0.001 ga teng. Lotareya narxi 5 ming so‘m bo‘lsa, individning kutilayotgan daromadi qanchani tashkil etadi?** |
|---|
| 13000 so‘m |
| 12000 so‘m |
| 21000 so‘m |
| 24000 so‘m |

**№149 Fan bobi- 4; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Aktivlar bu-** |
|---|
| O‘z egasini yashirin to‘lov - foyda, dividend, renta va boshqalar shaklidagi pul tushumlari bilan ta’minlaydi |
| O‘z egasini yashirin to‘lov – firma qiymatining oshishi, aksiyalar va boshqalar shaklidagi pul tushumlari bilan ta’minlaydi |
| O‘z egasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov - aksiya, obligatsiya, asosiy kapitalning oshishi shaklidagi pul tushumlari bilan ta’minlaydi |
| O‘z egasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov – foyda, dividend, renta va boshqalar shaklidagi pul tushumlari bilan ta’minlaydi |

**№150 Fan bobi-4; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar dividend, kapital ortimi miqdori 20% ga ortsa va sotib olingan aktiv narxi 20% ga kamaysa, qaytim normasi necha foizga o‘zgaradi?** |
|---|
| 50% ga ortadi |
| 40% ga kamayadi |
| 60% ga kamayadi |
| 70% ga ortadi |

## 3-BO’LIM. MAKROIQTISODIYOT

**№ 1 Fan bobi-1; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i nimani bildiradi?** |
|---|
| Ishlab chiqarish vositalari va istemol buyumlari ishlab chiqarishning mumkin bo‘lgan maksimal hajmini ifodalaydi |
| Bozor resurslaridan foydalangan holda ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish hajmini maksimal darajasini xarakterlaydi |
| Yil davomida istemol buyumlari ishlab chiqarishning mumkin bo‘lgan maksimal hajmini ifodalaydi |
| Yil davomida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishning mumkin bo‘lgan maksimal hajmini belgilaydi |

**№ 2 Fan bobi-1; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Transfert to‘lovlar bu:** |
|---|
| Milliy daromadga qo‘shilmaydigan daromad turi |
| Tovarlar va xizmatlarni sotib olishga hukumat tomonidan qilingan xarajatlar |
| Mahsulot va xizmatlarga uy xo‘jaliklari tomonidan to‘lovlar |
| Xo‘jaliklari tomonidan to‘lovlar |

**№ 3 Fan bobi-2; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Quyidagilarning qaysi biri yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiradi?** |
|---|
| Do‘kondagi yangi kitoblarning narxi |
| Qo‘shnidan sotib olingan eski mashina bahosi |
| Brokerdan sotib olingan yangi aksiya qiymati |
| Uy bekasining xizmatlari |

**№ 4 Fan bobi-2; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Agar milliy daromaddan korporatsiya foydasidan olinadigan soliqni, taqsimlanmagan foydani hamda ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini ayirsak, so‘ngra sof transfert to‘lovlarini yuqoridagilarga qo‘shilsa, olingan mikdor teng bo‘ladi:** |
| Shaxsiy daromadga |
| Amortizatsiyaga |
| Yalpi ichki mahsulotga |
| Sof ichki mahsulotga |

**№ 5 Fan bobi-2; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Yalpi milliy daromad, bu:** |
| Yaim + mamlakat yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan chet ellarda olingan va mamlakatga olib kirilgan daromad – chet el yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan mamlakatda olingan va olib chiqib ketilgan daromadlar |
| Investitsiya minus jamg‘arma |
| Shaxsiy daromad plyus individual soliq, minus davlat tashkilotlargai sof subsidiyalar |
| Renta, ish xaqi, kapitalga protsent, mulkchilik daromadi va korporatsiya foydasi yig‘indisi |

**№ 6 Fan bobi-3; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Keltirilgan malumotlarga asoslanib yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichini aniqlang:**<br>1.sof investitsiyalar-51,2; 2.eksport hajmi-15,3;<br>3.amortizatsiya-12,7; 4.davlat xaridi- 57,4;<br>5.biznesga egri soliqlar-13,3; 6.tranfert to‘lovlari-14,8;<br>7.import hajmi- 12,4; 8.foyda solig‘i-40.8;<br>9.shaxsiy istemol xarajatlari- 223,1; 10. Ish haqi-250;<br>11. Korporatsiya foydasiga soliq-12. |
| 347,3 |
| 357,6 |
| 347 |
| 388,1 |

**№ 7 Fan bobi-3; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Quyidagi ko‘rsatkichlardan qaysi biri xarajatlar yig‘indisi ko‘rinishida hisoblangan yaim tarkibiga kirmaydi?** |
| Ish haqi va qo‘shimcha to‘lovlar |
| Mahsulot va xizmatlar sof eksporti |
| Davlatning tovar va xizmatlar sotib olishga xarajatlari |
| Yalpi investitsiyalar |

**№ 8 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Oldingi ikki yil davomida nominal yaim 500 mlrd.dollardan 560 mlrd.dollarga ko‘paydi. Shu ikki yil ichida yaim deflyatori 125%dan 140 % gacha o‘zgardi. Bu shuni anglatadiki, real yaim:** |
| O‘zgarmadi |
| Ko‘paydi |
| Kamaydi |
| Fikr bildirish uchun ma’lumot yetarli emas |

**№ 9 Fan bobi-4; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **Berilgan malumotlar asosida xususiy jamg‘armalar miqdorini aniqlang:**<br>Daromadlar(u) –400, transfert to‘lovlari (tr) –80, davlat zayomlari bo‘yicha foiz to‘lovlari(n)-20, soliqlar (t)-zo, iste’mol (s)-370 |
| 30 |
| 100 |
| 20 |
| 80 |

**№ 10 Fan bobi-5; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Yaqin orada yana ish olishga umid qilayotgan odam:** |
| Ishsizlar guruhiga kiradi |
| Bandlar guruhiga kiradi |
| Ishchi kuchi tarkibiga kirmaydi |
| To‘liq bo‘lmagan band hisoblanadi |

**№ 11 Fan bobi-5; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Iqtisodiyotning pasayishi tufayli ishini yo‘qotganlar qaysi toifaga kiradi?** |
|---|
| Davriy ishsizlar |
| Strukturaviy ishsizlar |
| Friksion ishsizlar |
| Yashirin ishsizlar |

**№ 12 Fan bobi-5; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **To‘liq bandlik sharoitida friksion ishsizlik bo‘lishi kerak:** |
|---|
| «0»ga teng |
| 1%dan kam |
| Siklik formadagi ishsizlikdan kam |
| 2%dan kam |

**№ 13 Fan bobi-5; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Ouken qonuniga binoan haqiqiy ishsizlik darajasining tabiiy ishsizlikdan 2% oshishi yaim real (haqiqiy) hajmini % hisobida uning potensial miqdoridan orqada qolishiga olib keladi:** |
|---|
| 5% ga |
| 3% ga |
| 6% ga |
| 7% ga |

**№ 14 Fan bobi-6; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Iqtisodiyot quyidagi ma’lumotlar bilan ifodalangan: aholining umumiy soni 65mln. Kishi; mehnat resurslari soni 44mln.kishi. Ishsizlar soni 4mln. Kishi. Ish bilan bandlar soni 36 mln. Kishi. Bu holatda ishsizllik darajasi teng bo‘ladi:** |
|---|
| 10% |
| 19.09% |
| 11.1% |
| 6.15 % |

**№ 15 Fan bobi-6; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Ishsizlikning tabiiy darajasi 6 %, ishsizlikning haqiqiy darajasi 7,33 %, potensial yaim yiliga 3 %ga o‘sadi, yaimning davriy ishsizlik dinamikasiga ta’sirchanligi koeffitsenti 3 ga teng. Keyingi yilda tabiiy ishsizlik darajasida resurslarning to‘liq bandliligi ta’minlanishi uchun ishlab chiqarishning haqiqiy darajasi qanday sur’atda o‘sishi lozim?** |
|---|
| 7 % ga |
| 4 % ga |
| 8 % ga |
| 8,33 % ga |

**№ 16 Fan bobi-6; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **1997 yilda 1992 yilga nisbatan istemol narxlar indeksi 500% ni, 1996 yilda esa 1992 yilga nisbatan 400% ni tashkil etdi. 1997 yildagi inflyatsiya sur’atini aniqlang.** |
|---|
| 25% |
| 40% |
| 20% |
| 60% |

**№ 17 Fan bobi-6; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agar nominal daromad 5% ga , baho darajasi esa 10% oshsa, u holda real daromad:** |
|---|
| 5,0% ga kamayadi |
| 5,5% oshadi |
| 2,0% ga kamayadi |
| 8,0% ga oshadi |

**№ 18 Fan bobi-6; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar iste’mol baholari indeksi o‘tgan davrga nisbatan o‘sgan bo‘lsa, unda yaim deflyatori**: |
|---|
| Ko‘payishi, kamayishi yoki o‘zgarmasligi mumkin |
| Kamayadi |
| O‘zgarmaydi |

| |
|---|
| O‘sadi |

**№ 19 Fan bobi-7; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Nominal foiz stavka 20% ga teng, inflyatsiya darajasi yiliga 15% ga teng bo‘lganda, real foiz stavka nimaga teng bo‘ladi?** |
|---|
| 5,0% |
| 7,5% |
| 3,0% |
| 6,0% |

**№ 20 Fan bobi-7; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agarda potensial mahsulot ishlab chiqarish 550, xaqiqiy ishlab chiqarish esa 500 ga teng bo‘lsa, unda yaimdagi uzilish yoki orqada qolish nimaga teng?** |
|---|
| 9% |
| 5% |
| 10% |
| 11,1% |

**№ 21 Fan bobi-7; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Inflyatsiya sur’ati yiliga 4% teng bo‘lsa, narxlar darajasi necha yildan keyin ikki baravarga o‘sadi?** |
|---|
| 17,5 yildan keyin |
| 18,5 yildan keyin |
| 16,5 yildan keyin |
| 28,5 yildan keyin |

**№ 22 Fan bobi-8; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

**Quyidagi ko‘rsatkichlar vositasida ikkinchi yilda birinchi yilga nisbatan real foiz stavkasi qancha miqdorga o‘zgarganini toping?**

| **Yillar** | **Inflyatsiya darajasi** | **Nominal foiz stavkasi** |
|---|---|---|
| **1** | **3%** | **8%** |
| **2** | **8%** | **3%** |

| |
|---|
| 10 foizga kamaydi |
| 5 % ga ko‘paydi |
| V 15 % ga kamaydi |
| Real foiz stavkasi o‘zgarmadi |

**№ 23 Fan bobi-8; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Fillips egri chizig‘ining zamonaviy talqiniga ko‘ra, inflyatsiya darajasi quyidagi bilan musbat bog‘liqlikka ega:** |
|---|
| Yuqorida keltirilgan barcha javoblar to‘g‘ri |
| Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan |
| Taklif shoklari bilan |
| A kutilayotgan inflyatsiya bilan |

**№ 24 Fan bobi-8; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Nominal yalpi ichki mahsulotning va baholar darajasining bir vaqtda pasayishi klassik model bo‘yicha quyidagicha tushuntiriladi:** |
|---|
| Faqatad egri chizig‘i chapga siljiydi |
| Faqat ad egri chizig‘i o‘ngga siljiydi |
| Faqat potensial yaim darajasi pasayadi |
| As egri chizig‘i o‘ngga siljiydi |

**№ 25 Fan bobi-8; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Baholar darajasi o‘zgarmagan holda yaimning pasayishi klassik model buyicha quyidagicha tushuntiriladi:** |
|---|
| Bir vaqtning o‘zida yalpi talab va potensial yaim kamayadi |
| Potensial yaim o‘zgarmagani holda yalpi talab o‘sadi |
| Yalpi talab o‘zgarmagani holda potensial yaim o‘sadi |
| Potensial yaim pasaygani holda yalpi talab o‘sadi |

**№ 26 Fan bobi-8; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Ad egri chizig‘ining chap va o‘ng tomonga siljishi baholar darajasiga ta’sir etmaydi, agar:** |
|---|
| Bu siljish a s egri chizig‘ining gorizontal kesimida bulsa |
| Bu siljish as egri chizig‘ining vertikal kesimida bo‘lsa |
| Bu siljish as egri chizig‘ining oraliq kesimida bo‘lsa |
| Iqtisodiyot to‘liq bandlik sharoitida bo‘lsa |

**№ 27 Fan bobi-8; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar baho darajasi oshsa, ishlab chiqarish pasayadi, bu holat ad –as modelida izohlanadi:** |
|---|
| As egri chizig‘ining chapga siljigani bilan |
| Ad egri chizig‘ining chapga siljigani bilan |
| Ad egri chizig‘ining o‘ngga siljigani bilan |
| As egri chizig‘ining o‘ngga siljigani bilan |

**№ 28 Fan bobi-8; Bo‘lim- 1; Qiyinchilik darajasi- 1;**

| **As egri chizig‘i keyns kesimida:** |
|---|
| Gorizontal ko‘rinishga ega |
| Salbiy egilishga ega |
| Vertikal ko‘rinishga ega |
| Ijobiy egilishga ega |

**№ 29 Fan bobi- 8; Bo‘lim- 1; Qiyinchilik darajasi- 1;**

| **Iqtisodiyot ASning klassik kesimida bo‘lganda, AD ning o‘sishi quyidagiga olib keladi:** |
|---|
| Baholarning o‘sishiga, lekin real yaim (darajasi) dinamikaga tasir qilmaydi |
| Yaimning o‘sishiga olib keladi, lekin baholar darajasiga ta’sir qilmaydi |
| Baholar darajasi va real yaimning o‘sishiga |
| Baholar darajasining pasayishiga va real yaim o‘sishiga |

**№ 30 Fan bobi- 9; Bo‘lim- 2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Yalpi talab ad egri chiziq bo‘ylab yuqoriga suriladi, agar:** |
|---|
| Baholar darajasi oshsa |
| Baholar darajasi pasaysa |
| Ishlab chiqarish quvvatlari pasaysa |
| Milliy valyutaning kursi ko‘tarilsa |

**№ 31 Fan bobi- 9; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Yalpi talab egri chizig‘i tenglamasi: u=2500-500r, ishlab chiqarishning potensial hajmi 2000. Agar shu vaziyatda iqtisodiyotdagi baholar darajasi 1,3 ga teng bo‘lsa, unda uzoq muddatli davrda baholar darajasi:** |
|---|
| O‘sish tendensiyasiga ega bo‘ladi |
| Pasayish tendensiyasiga ega bo‘ladi |
| O‘zgarmaydi |
| Dastlab o‘sadi so‘ng pasayadi |

**№ 32 Fan bobi-9; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar dastlab iqtisodiyot uzoq muddatli muvozanat holatida bo‘lsa unda neft baholarining o‘sishi natijasida kelib chiqqan taklif shoki qisqa muddatli davrga olib kelishi mumkin:** |
|---|
| Baholar darajasining o‘sishi va ishlab chiqarish hajmining kamayishiga |
| Iqtisodiyotda baholar darajasi va ishlab chiqarish hajmlarining pasayishiga |
| Baholar darajasining o‘sishi va ishlab chiqarish hajmining o‘zgarmay qolishiga |
| Iqtisodiyotda baholar darajasi va ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga |

**№ 33 Fan bobi- 9; Bo‘lim- 2; Qiyinchilik darajasi-2**;

| **Agar iste’molchilar tasarrufdagi daromadlaridan joriy iste’molga qilinadigan xarajatlari ulushini ko‘paytirsalar, qisqa davrda**: |
|---|
| Ishlab chiqarish hajmi va bandlilik darajasi o‘zgarmagani holda baholar darajasi ko‘tariladi |
| Avvalam bor ishlab chiqarish hajmi va bandlilik darajasi kamayadi |
| Avvalam bor ishlab chiqarish hajmi va bandlilik darajasi oshadi |
| Ishlab chiqarish hajmi va bandlilik darajasi o‘zgarmagani holda baholar darajasi pasayadi |

**№34 Fan bobi-9; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Yalpi talab egri chizig‘i siljiydi:** |
|---|

| |
|---|
| O‘ngga, agar iqtisodiyotda pul taklifi ko‘paysa |
| Chapga, agar iqtisodiyotdagi baholar darajasi o‘ssa |
| O‘ngga, agar davlat xarajatlari qisqarsa |
| Chapga, agar aholidan olinadigan daromad solig‘i qisqarsa |

**№ 35 Fan bobi-9; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Yalpi taklifning klassik modelida:** |
|---|
| Iqtisodiyot to‘lib bandlik sharoitida turgan holat aks ettiriladi |
| Nominal yaim, va baholar darajasi qayd qilingan (o‘zgarmas) |
| Yalpi talabning o‘zgarishi baholar darajasiga ta’sir etmaydi |
| Ish haqi, baholar darajasi va real yaim o‘zgaruvchan |

**№ 36 Fan bobi-10; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Faraz qilaylik,mamlakatda daromad o‘tgan yilga nisbatan 100 birlikka o‘sgan va bu istemolni 75 birlikka o‘zgarishiga olib kelgan.unda jamg‘arishga bo‘lgan chegaraviy moyillik (mrs) va istemolga bulgan chegaraviy moyillik mpc) nimaga teng buladi?** |
|---|
| 25%va75% |
| 15% va 55% |
| 33,3% va 66,7% |
| 125% va 75% |

**№ 37 Fan bobi-10; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agarda ixtiyoridagi daromad (u) 200ga istemol (s) 180 ga teng bo‘lsa, unda istemolga bo‘lgan o‘rtacha moyillik (ars) va jamg‘arishga bo‘lgan o‘rtacha moyillik (ars) nimaga teng bo‘ladi?** |
|---|
| 90% va 10% |
| 111%va 11% |
| 98% va 2% |
| 80% va 20% |

**№ 38 Fan bobi-10; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Keyns modeliga ko‘ra:** |
|---|
| Qisqa muddatdi davrga baholar va nominal ish haqi qayd etilgan |
| Baholar va nominal ish haqlari o‘zgaruvchan |
| Ishlab chiqarish hajmini iqtisodiyotdagi kapital zahirasi belgilab beradi |
| Iqtisodiyotda taklif o‘ziga mos talabni tug‘diradi |

**№ 39 Fan bobi-10; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modelida yaimning muvozanatli darajasi, bu:** |
|---|
| Jamg‘armalar va rejalashtirilgan sof investitsiyalarning tengligidagi yaim darajasi |
| Daromadlar va rejali xarajatlar tengligidagi yaim darajasi |
| Haqiqiy xarajatlar va rejali xarajatlar tengligidagi yamm darajasi |
| Investitsiyalarning yaim darajasi |

**№ 40 Fan bobi-10; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar daromadlar rejalashtirilgan xarajatlardan yuqori bo‘lsa, u xolda firma ishlab chiqarishini qisqartiradi, chunki rejadan tashqari mahsulotlar miqdori (ularning zahirasi):** |
|---|
| Ko‘payadi |
| Kamayadi |
| «0»ga teng bo‘ladi |
| O‘zgarmaydi |

**№ 41 Fan bobi-10; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agar soliqlar 100 birlikka ko‘tarilsa, foiz stavkasi o‘zgarmasdan qolsa, iste’molga chegaraviy moyillik 0,6 ga teng bo‘lsa keyns xochini qo‘llagan holda hisoblangan ishlab chiqarish hajmi...** |
|---|
| 150 ga kamayadi |
| 130 ga ko‘payadi |
| 250 ga ko‘payadi |
| 230 ga kamayadi |

**№ 42 Fan bobi-11; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **O‘tgan yili yaim 2000 ni, davlat xarajatlari esa 500 ni tashkil qildi.xarajatlarni 50 ga oshirib** |
|---|

| |
|---|
| **hukumat yaimni 200 ga oshirishga erishdi. MPC (istemolga bo'lgan chegaralangan moyillik) nechaga teng?** |
| 0,75 ga |
| 0,25 ga |
| 0,85 ga |
| 0,95 ga |

**№ 43 Fan bobi-11; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega: c=400+0,8 yd avtonom xarajatlar multiplikatori teng:** |
| 5 ga |
| 6 ga |
| 8 ga |
| 3 ga |

**№ 44 Fan bobi-11; Bo'lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Agar (naqd pul / depozit) koeffitsiyenti pasaysa, boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda:** |
| Pul taklifi ko'payadi |
| Pul taklifi kamayadi |
| Pul multiplikatori kamayadi |
| Bank multiplikatori kamayadi |

**№ 45 Fan bobi-12 ; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-1 ;**

| |
|---|
| **Agar pul bazasi (m 300 mlrd so'mga, depozitlarni majburiy zahiralash normasi 0,1 ga, deponentlash koeffitsiyenti esa 0,2 ga teng bo'lsa, pul taklifi miqdorini aniqlang.** |
| 1200 mlrd so'm |
| 1000 mlrd so'm |
| 1650 mlrd so'm |
| 1900 mlrd so'm |

**№ 46 Fan bobi-12; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Pulga transaksion talab o'sadi, agar:** |
| Nominal yaim ko'paysa |
| Baholar darajasi pasayganda |
| Foiz stavkasi ko'tarilsa |
| Nominal yaim kamaysa |

**№ 47 Fan bobi-12; Bo'lim-11; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Aytalik, naqd pulga talab depozitlarning 10 %iga teng bo'lsin. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi 0,15 ga teng. Agar markaziy bank pul taklifini 880 mlrd. So'mga oshirmoqchi bo'lsa, pul bazasini...** |
| 200 mlrd. So'mga ko'paytirishi kerak |
| 133 mlrd so'mga ko'paytirishi kerak |
| 188 mlrd.so'mga ko'paytirishi krak |
| 250 mlrd. So'mga ko'paytirishi kerak |

**№ 48 Fan bobi-12; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: iste'mol xarajatlari s=-100+0.8yd; investitsiyalar i=200; davlat xarajatlari g=800; soliq stavkasi t=0.2. Agar hukumat soliq stavkalarini oshirish va davlat xarajatlarini kamaytirish orqali davlat budjetini balanslashtirish to'g'risida qaror qabul qilsa, unda:** |
| Yaim 2500 dan kam bo'ladi |
| Yaim 2600 dan oshib ketadi |
| Yaim 1550ga teng bo'ladi |
| Yaim inamikasini prognoz qilish uchun mak'lumotlar yetarli emas |

**№ 49 Fan bobi-13; Bo'lim-1; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Resurslar to'liq band bo'lgan iqtisodiyotda hukumat davlat xarajatlarini 15 mlrd. So'mga oshirishga qaror qildi. Daromadlarning muvozanatli darajasi 500 mlrd. So'm, iste'molga chegaraviy moyillik 0,75, davlat budjetiga sof soliq tushumlari avtonom, ya'ni daromadlar darajasiga bog'liq emas. Ortiqcha yalpi taklifni yuzaga keltirmaslik va baholar darajasining barqarorligini saqlab turish uchun budjetga soliq tushumlarini qanchaga ko'paytirish lozim?** |
| 20 mlrd. so'mga |
| 25 mlrd so'mga |
| 10 mlrd. so'mga |

| |
|---|
| 35 mlrd. so‘mga |

**№ 50 Fan bobi-13; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar iqtisodiyot muvozanat holatida turgan bo‘lsa, ta’kidlash mumkinki:** |
|---|
| Iste’mol xarajatlari investitsiyalarga teng bo‘lishi lozim |
| Davlat budjeti balanslashgan |
| Iste’mol xarajatlarini har qanday oshirish inflyatsion uzilishga olib keladi |
| Pul multiplikatori kamayadi |

**№ 51 Fan bobi-13; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Quyida keltirilgan fikrlarning qaysi biri noto‘g‘ri?** |
|---|
| Soliq stavkalarining pasaytirilishi inflyatsiya sur’ati ko‘tarilishi ehtimolini to‘liq bartaraf qiladi |
| Davlat qarzining to‘lash xarajatlarining ortishi soliq stavkalarini pasaytirish imkoniyatini kamaytiradi |
| Soliq islohotlari soliq stavkalarini pasaytirish, soliq bazasini kengaytirish, va turli kategoriyadagi soliq to‘lovchilar orasida soliq yukini teng taqsimlash maqsadlarini ko‘zda tutadi |
| Soliq stavkalarini pasaytirish budjetning soliq tushumi ko‘rinishidagi daromadlari paayishiga olib kelishi mumkin |

**№ 52 Fan bobi-13; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Davlat xarajatlarining o‘sishi real yaimni ko‘payishiga olib keladi, qachonki:** |
|---|
| Davlat xarajatlarining ortishi nodavlat setorining shunga teng miqdordagi xarajatlari kamayishiga olib kelmasa |
| Davlat xarajatlari va pul taklifi bir vaqtda o‘ssa |
| Bu xarajatlari davlat xizmatchilari ish haqi oshirilishiga emas, balki tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflansa |
| Bu xarajatlari davlat obligatsiyalari chiqarilishi hisobiga moliyalashtirilsa |

**№ 53 Fan bobi-13; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Majburiy zahiralash normasi 12%, ortiqcha rezervlar depozitlar summasining 3 %ini tashkil etadi. Agar jami rezervlar 45 mlrd so‘mni, naqd pullar esa 150 mlrd. So‘mni tashkil etsa, depozitlar hajmi teng bo‘ladi**: |
|---|
| 300 mlrd. so‘mga |
| 375 mlrd. so‘mga |
| 363,75 mlrd. so‘mga |
| 225 mlrd. so‘mga |

**№ 54 Fan bobi-13; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Depozitlarni majburiy zahiralash normasining oshirilishi:** |
|---|
| Pul multiplikartorining pasayishi hisobiga pul taklifini kamaytiradi |
| Pul multiplikartorining o‘sishi hisobiga pul taklifini ko‘paytiradi |
| V hisob stavkasining pasayishi hisobiga pul taklifini ko‘paytiradi |
| Tijorat banklarining kredit berish imkoniyatini kengaytiradi |

**№ 55 Fan bobi-13; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Depozitlarni majburiy zahiralash normasi 0,25 ga teng. Ochiq bozordagi operatsiyalar orqali markaziy bank pul taklifini maksimal 440 mlrd. So‘mga oshirishi mumkin. Bu uchun esa markaziy bank**: |
|---|
| 110 Mlrd. So‘mlik obligatsiyalarni sotib olishi kerak |
| 440 mlrd. So‘mlik obligatsiyalarni sotishi kerak |
| 1760 mlrd. So‘mlik obligatsiyalarni sotib olishi lozim |
| 100 mlrd. So‘mlik obligatsiyalarni sotishi lozim |

**№ 56 Fan bobi-13; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Markaziy bank pul taklifini kamaytirishga qaror qilsa, u holda:** |
|---|
| Qayta moliyalash stavkasini ko‘taradi |
| Ochiq bozorda obligatsiyalarni sotib oladi |
| Depozitlarni majburiy zahiralash normasini pasaytiradi |
| Pul-kredit siyosatini yumshatadi |

**№57 Fan bobi-13; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Ochiq bozordagi operatsiyalar-bu:** |
|---|
| Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib olish-sotish |
| Tijorat banklari tomonidan chet-el valyutalarini sotib olish-sotish |
| Mamlakat kompaniyalari tomonidan jahon bozorida tovarlar va xizmatlar sotib olish-sotish |
| Nomoliyaviy korporatsiyalar tomonidan fond birjalarida aksiya va obligatsiyalarni sotib olish-sotish |

**№ 58 Fan bobi-13; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Is-lm modelida davlat xarajatlari (g) va pul taklifi (m) shunday holatda o'zgardiki, bunda daromad miqdori (u) saqlanib qoldi, (r) foiz stavkasi esa ko'paydi. Bu holatda shuni qayd etish mumkinki:** |
| G ko'payadi, m kamayadi |
| G va m ko'payadi |
| G kamayadi, m ko'payadi |
| G va m kamayadi |

**№ 59 Fan bobi-14; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: muvozanatli ishlab chiqarish hajmi u=5000; iste'mol funksiyasi s=500+0,6(u-t); soliqlar t=600; davlat xarajatlari – 1000; investitsiya funksiyasi: i=2160-10000r. Bu holatda muvozanatning real foiz stavkasi teng bo'ladi:** |
| 13% |
| 12% |
| 14% |
| 15% |

**№ 60 Fan bobi-14; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Tovarla va xizmatlar sotib olishga davlat xarajatlarining 10 birlikka o'sishi is egri chizig'ining quyidagicha siljishini keltirib chiqaradi:** |
| O'ngga birlikka, bu yerda b - iste'molga chegaralangan moyillik |
| Chapga 10 birlikka |
| O'ngga 10 birlikka |
| Chapga birlikka |

**№ 61 Fan bobi-14; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **Agar iste'molga chegaraviy moyillik 0,75 ga teng bo'lsa, soliqlarning 100 birlikka kamayishi natijasida:** |
| Is egri chizig'i o'ngga 300 birlikka siljiydi |
| Lm egri chizig'i o'ngga 100 birlikka siljiydi |
| Is ergi chizig'i o'ngga 300 birlikka siljiydi |
| Is va lm egri chiziqlari bir vaqtda o'ngga 300 birlikka siljiydi |

**№ 62 Fan bobi-14; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar vositasida berilgan:**<br>**Y=c+i+g+xn; c=100+0,9yd ; i=200-500r;**<br>**Xn= 100-0,12y-500r; m=(0,8y-2000r) p;**<br>**G=200; t=0,2; ms = 800; p=1.**<br>**Bunday vaziyatda lm egri chizig'i tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:** |
| Y=1000+2500r |
| Y=1900+2600r |
| Y=900+600r |
| Y=1500+2700r |

**№63 Fan bobi-14; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **Solik. Stavkasi (t) va muomaladagi pul massasi (m) o'zgarishi natijasida foiz stavkasi (r) o'z xolicha qoldi daromad (u) o'sdi. Qayd kilish mumkinki:** |
| M o'sdi, t kamaydi |
| T va m o'sdi |
| M va t kamaydi |
| M kamaydi, t o'sdi |

**№ 64 Fan bobi-14; Bo'lim-1; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar vositasida berilgan:**<br>**Y=c+i+g+xn; c=100+0,9yd; i=200-500r; xn= 100-0,12y-500r;**<br>**M=(0,8y-2000r) p; g=200; t=0,2; ms =800; p=1.**<br>**Bunday vaziyatda is egri chizig'i tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:** |
| Y=1500-2500r |
| Y=1600-2700r |
| Y=1500-2600r |
| Y=1600-2600r |

**№ 65 Fan bobi-14; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agar iqtisodiyot likvidlilik tuzog‘i holatida turgan bo‘lsa, u holda:** |
|---|
| Tovarlar va xizmatlar lm egri chizig‘ining keyns kesimida erishiladi |
| Iqtisodiy agentlar naqd pullarni saqlab turishni afzal ko‘rishadi |
| Pul taklifi bo‘yicha samarali talab elastik emas |
| Tovarlar va xizmatlar hamda pul bozorlaridagi muvozanatga lm egri chizig‘ining keyns kesimida erishiladi |

**№ 66 Fan bobi-14; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **IS –LM egri chiziqlarining kesishish nuqtasida:** |
|---|
| Ishlab chiqarish va foiz stavkasi darajalari ham tovar, ham pul bozoridagi muvozanat shartlarini qanoatlantiradi |
| Real pul taklifi pulga bo‘lgan real talabga teng |
| Rejalashtirilgan xarakjatlar haqiqiy xarajatlarga teng |
| Pul taklifi bo‘yicha samarali talab elastik emas |

**№ 67 Fan bobi-14; Bo‘lim-2 ; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Hukumat soliqlarni oshirgan vaziyatda, foiz stavkasini o‘zgarmasdan turishini ta’minlab turish uchun markaziy bank:** |
|---|
| Pul taklifini kamaytiradi |
| Pul taklifini ko‘paytiradi |
| Oldin pul taklifin ko‘paytiradi, so‘ngra esa kamaytiradi |
| Oldin pul taklifini kamaytiradi, so‘ngra esa ko‘paytiradi |

**№68 Fan bobi-14; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Hukumat soliqlarni oshirgan sharoitda markaziy bank pul taklifini pasaytirsa:** |
|---|
| Muvozanatli daromad darajasi albatta kamayadi |
| Muvozanatli daromad darajasi albatta oshadi |
| Foiz stavkasi albatta oshadi |
| Foiz stavkasi albatta kamayadi |

**№ 69 Fan bobi-15; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Quyida sanab o‘tilganlarning qaysisi potetsial yaim o‘sishining omili hisoblanadi?** |
|---|
| Ishchi kuchi sonining o‘sishi |
| Iqtisodiyotda kapital zahiralarining ko‘payishi |
| Iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o‘sishi |
| Real pul taklifi pulga bo‘lgan real talab |

**№ 70 Fan bobi-15; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **To‘liq bandlikka erishgan iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari ta’minlanishi uchun:** |
|---|
| Jamg‘arish va investitsiya me’yorlari katta bo‘lishi lozim |
| Jamg‘arish me’yori katta va investitsiya me’yori kichik bo‘lishi lozim |
| Jamg‘arish va investitsiya me’yorlari kichik bo‘lishi lozim |
| Jamg‘arish me’yori kichik, investitsiya me’yori esa katta bo‘lishi lozim |

**№ 71 Fan bobi-15; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Solou modelida bir ish bilan band xodimga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishi izohlanadi:** |
|---|
| Texnologik taraqqiyot bilan |
| Jamg‘arish me’yorining o‘sishi bilan |
| Aholi sonining o‘sishi bilan |
| Kapital bilan qurollanganlik darajasining ortishi bilan |

**№72 Fan bobi-15; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Ishlab chiqarish funksiyasi va jamg‘arish me’yori o‘zgarmas, aholi sonining o‘sishi hamda texnologik taraqqiyot sur’atlari doimiy bo‘lgan sharoitda iqtisodiyotda kapitalning chiqib ketish (amortizatsiya) me’yori oshirilsa:** |
|---|
| Bitta xodimga to‘g‘ri keluvchi kapital zahirasining barqaror darajasi pasayadi |
| Bitta xodimga to‘g‘ri keluvchi kapital zahirasining barqaror darajasi o‘sadi |
| Fond bilan qurollanganlikning barqaror darajasi o‘zgarmaydi |
| Aniq bir fikr bildirish mumkin emas |

**№73 Fan bobi-15; Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Intensiv iqtisodiy o‘sishning manbai bo‘lib hisoblanadi:** |
| Yangi avlod stanogidan foydalanish natijasida mehnat unumdorligining oshishi |
| Tabiiy gazning yangi manbalari  ochilishi |
| Haftalik ish soatining uzaytirilishi |
| Qishloq xo‘jaligida yangi ekin maydonlarining o‘zlashtirilishi |

**№ 74 Fan bobi-15;  Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Solou modeliga ko‘ra aholi sonining o‘sish sur’ati   n ga, texnologik taraqqiyot darajasi esa  g ga teng bo‘lsa barqaror holatdagi  yalpi ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati teng bo‘ladi:** |
| N+g ga |
| 0 ga |
| G ga |
| N ga |

**№ 75 Fan bobi-15;  Bo‘lim-1;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Tarixan ishchi kuchining qishloq xo‘jaligidan sanoatga ko‘chib o‘tishi:** |
| O‘rtacha mehnat unumdorliging  o‘sishiga olib keladi |
| O‘rtacha mehnat unumdorliging pasayishigaolib keladi |
| Aholi jon boshiga to‘g‘rikeladigan yaim hajmining pasayishiga olib keladi |
| Inflyatsiya holatlarini yuzaga keltiradi |

**№ 76 Fan bobi-16;  Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Iqtisodiy o‘sishning Domar va Xarrod modellarida investitsiyalar:** |
| Ham yalpi talab, ham yalpi taklif komponenti hisoblanadi |
| Faqat yalpi talab komponenti deb qaraladi |
| Ishchi kuchi va tabiiy resurslar bilan birga iqtisodiy o‘sish omili hisoblanadi |
| Jamg‘arish me’yori pasaygandagina ko‘payishi mumkin |

**№77 Fan bobi-16; Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Domar modeliga ko‘ra iqtisodiy o‘sish:** |
| Jamg‘arish me’yori va kapital unumdorligini o‘stirish hisobiga ta’minlanadi |
| Faqat kapitalning unumdorligi ortishiga bog‘liq |
| Ishchi kuchi soni va sifatining o‘sishiga bog‘liq |
| Jamg‘arish me’yori pasaytirilishi bilan ta’minlanadi |

**№78 Fan bobi-16; Bo‘lim-3;  Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Quyidagi ta’kidlarning qaysi biri noto‘g‘ri?** |
| Iqtisodiy o‘sishni  klassik  kesmadagi yalpi taklif egri chizig‘ining hamda  ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ining chapga siljishi ko‘rinishida tasvirlash mumkin |
| Iqtisodiy o‘sish potensial yaim hajmining oshganligini anglatadi |
| Iqtisodiy o‘sish aholi jon boshiga yoki iqtisodiyotda band bo‘lgan bitta xodimga to‘g‘ri keluvchi yaim hajmining ko‘payishi ko‘rinishida ham aniqlanadi |
| Iqtisodiy o‘sish  ko‘rsatkichi real yaim hajmining bazis davriga nisbatan o‘sish sur’ati ko‘rinishida aniqlanadi |

**№79 Fan bobi-16; Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **A mamlakat barcha resurslardan foydalangan holda 200 birlikdagi x tovarini yoki 350 birlikdagi u tovarni ishlab  chiqara oladi. V mamlakat esa 450 birldikdagi x tovarini yoki 600 birlikdagi u tovarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu holda:** |
| A mamlakat savdo munosabatlarini o‘rnatganidan so‘ng x tovarni import qiladi |
| Mamlakatlar orasida o‘zaro manfaatli savdoni yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi |
| V mamlakat savdo munosabatlarini o‘rnatganidan so‘ng u tovarni eksport qiladi |
| A mamlakat savdo munosabatlarini o‘rnatganidan so‘ng x tovarni eksport qiladi |

**№80 Fan bobi-16; Bo‘lim-2;  Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **A mamlakat bir birlik resursdan foydalangan holda 2 t. Paxta yoki 8 tonna bug‘doy ishlab chiqara oladi. B mamlakat esa bir birlik  resursdan foydalanib 4 t. Paxta yoki  10 t. Bug‘doy  ishlab chiqarishi mumkin. Bunday holatda:** |
| B mamlakat paxta eksport qiladi va bug‘doy import qiladi |
| A mamlakat  paxta eksport qiladi va bug‘doy import qiladi |
| A mamlakat bu ikki mahsulotni  eksport qilmaydi va paxta import qiladi |

| |
|---|
| B mamlakat eksport qilmaydi va bug‘doy import qiladi |

**№ 81 Fan bobi-16; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Xeksher-olin teoremasini tavsiflovchi quyidagi fikrlarning qaysi biri noto‘g‘ri?** |
|---|
| Mamlakatlar, ishlab chiqarilish jarayonida o‘zlarida ortiqcha bo‘lgan omillar intensiv foydalinadigan mahsulotlarni import qiladi |
| Nisbiy xarajatlardagi mamlakatlar o‘rtasida mavjud tafovutlar ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir tekis ta’minlanmaganliklari hamda turli tovarlarni ishlab chiqarishda omillarning turlicha nisbatlaridan foydalanilishi bilan izohlanadi |
| Mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o‘rtasidagi nisbat boshqa davlatlarnikidan yuqoriroq bo‘lsa, bu mamlakat shu omil bilan ortiqcha ta’minlangan deb hisoblanadi |
| Mamlakatlar, ishlab chiqarilish jarayonida o‘zlarida taqchil bo‘lgan omillar intensiv foydalinadigan mahsulotlarni import qiladi |

**№ 82 Fan bobi-16; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

**Quyidagi jadvalda ikki mamlakatda x va u tovarlarni ishlab chiqarishga mehnat sarfi (soatlard to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan:**

| | **Mamlakatlar** | |
|---|---|---|
| | **A** | **B** |
| **Bir dona x tovar** | **4** | **8** |
| **Bir dona u tovar** | **10** | **16** |

| **Ma’lumotlardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki:** |
|---|
| Savdo munosabatlari o‘rnatilgandan so‘ng b mamlakat uchun x tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish maqbul bo‘ladi |
| Savdo munosabatlari o‘rnatilgandan so‘ng a mamlakat uchun x tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish maqbul bo‘ladi |
| B mamlakat x va u tovarlarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega |
| B mamlakat x va u tovarlarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega |

**№83 Fan bobi-16; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agarda eksport hajmi 80, import hajmi 60ga teng bo‘lsa, tashqi savdo aylanmasi qysi miqdorga teng bo‘ladi?** |
|---|
| 140 |
| 70 |
| 4800 |
| 2200 |

**№84 Fan bobi-16 ;Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| **Import kvotalari to‘g‘risidagi qaysi ta’kid noto‘g‘ri?** |
|---|
| Kvota, tarifdan farqli o‘laroq, davlatga hech qachon foyda keltirmaydi |
| Import kvotalarini joriy qilishdan davlat oladigan daromad import litsenziyalarini joylashtirish usuliga bog‘liq |
| Kvota mamlakatga tovarlar importi miqdorini cheklash uchun qo‘llaniladi |
| Import kvotalarining joriy etilishi mamlakat ichidagi bu tovarni ishlab chiqaruvchinig monopol hukmronligini kuchaytiradi |

**№ 85 Fan bobi-16; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Import tariflarining kiritilishi olib kelishi mumkin:** |
|---|
| Importiga tarif kiritilgan tovarni mamlakatda ishlab chiqarish hajmi o‘sishiga, bu tovar importining va ichki iste’molining qisqarishiga |
| Ichki resurslardan oqilona ( ratsional) foydalanishga |
| Davlat budjetiga tushumlarning va iste’mol hajmining ortishiga |
| Mamlakatda importiga tarif kiritilgan tovarni ishlab chiqarish qisqarishiga va uning import bilan alishtirilishiga |

**№ 86 Fan bobi-17; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Eksportga subsidiyalar:** |
|---|
| Budjetdan moliyalashtirish imkoniyatlariga bog‘liq ravishda cheklangan |
| Butunjahon savdo tashkiloti tomonidan qo‘llab quvvatlanadi |
| Ishlab chiqarish omillaridan oqilona (ratsional) foydalanishga ta’sir etmaydi |
| Mamlakat ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorlardagi pozitsiyasini zaiflashtiradi |

**№ 87 Fan bobi-17; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Eksport bojlarining kiritilishi quyidagiarning qaysi biriga olib kelmaydi?** |
| Mamlakat iste'molchilarining baholarning pasayishi hamda ushbu tovarni iste'mol qilish qisqarishi natijasida yo'qotishlariga |
| Ishlab chiqaruvchilar daromadlarining kamayishiga |
| Ushbu tovarning ichki baholarini pasayishiga |
| Boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan holatd davlat daromadlarining o'sishiga |

**№ 88 Fan bobi-17; Bo'lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Import tariflarini kiritishni yoqlovchi argument bo'lib hisoblanmaydi:** |
| Import tovarlarini ichki bozorda sotish hajmini ko'paytirish zarurati |
| Mamlakat ishlab chiqaruvchilarini dempingdan himoya qilish |
| To'lov balansi holatini yaxshilash zaruriyati |
| Mamlakatning yangi-"yosh" tarmoqlarini himoya qilish zaruriyati |

**№ 89 Fan bobi-17; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Agar mamlakatga importga to'lov uchun xorijiy valyuta zarur bo'lsa-yu, aktivlarni sotish yoki xorijdan qarz olish imkoniyati bo'lmasa muammoni yechishning maqbulroq yo'li:** |
| Ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xorijga sotish |
| Markaziy bankdan valyutani qarzga olish |
| Soliqlarni ko'paytirish va valyuta bozorida xorijiy valyutani sotib olish |
| Hukumat tomonidan mamlakat ishlab chiqaruvchilaridan tovarlar sotib olishni kamaytirish va tejalgan mablag'lardan importga to'lovlar uchun foydalanish |

**№ 90 Fan bobi-17; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Agarda joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i minus 60 ni, kapital harakati schyoti qoldig'i plyus 50ni tashkil etsa, umumiy balansni nolga keltirish uchun rasmiy rezervlardan jalb qilinadigan tushumlar qanchani tashkil etishi lozim?** |
| 10 |
| 9 |
| 11 |
| 14 |

**№ 91 Fan bobi-17; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Mamlakat to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti tarkibiga kirmaydi:** |
| Mamlakatning chet-eldagi aktivlaridagi o'zgarishlar |
| Chet mamlakat yuridik va jismoniy shaxslariga ko'rsatilgan transport xizmatlari |
| Tovar eksporti |
| Investitsiyalardan sof daromad |

**№ 92 Fan bobi-17; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Agar A mamlakat fuqarosi B mamlakat davlat xazina obligatsiyasini 100 ming dollarga sotib olsa, bu operatsiya to'lov balansida quyidagicha aks ettiriladi:** |
| Moliyaviy schet bo'yicha aktiv ko'paytiriladi |
| Moliyaviy schet bo'yicha aktiv kamaytiriladi |
| Joriy operatsiyalar scheti bo'yicha aktivlar kamaytiriladi |
| Joriy operatsiyalar scheti bo'yicha aktivlar ko'paytiriladi |

**№ 93 Fan bobi-18; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Agar A mamlakat B mamlakatga yangi burg'ulash uskunasini sotsa, bu operatsiya A mamlakatning to'lov balansida quyidagicha aks ettiriladi:** |
| Joriy operatsiyalar scheti aktivi ko'paytiladi |
| Joriy operatsiyalar scheti aktivi kamaytiriladi |
| Kapital harakati scheti aktivi kamaytiriladi |
| Moliya scheti bo'yicha aktiv ko'paytiriladi |

**№94 Fan bobi-18; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Boshqa sharoitlar o'zgarmagan vaziyatda milliy valyutaga bo'lgan talab ko'payadi, qachonki:** |
| Bu mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda real foiz stavkasi nisbatan yuqori, inflyatsiya darajasi esa nisbatan past bo'lsa |
| Bu mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda real foiz stavkasi nisbatan past, inflyatsiya darajasi esa nisbatan yuqori bo'lsa |

| |
|---|
| Bu mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda real foiz stavkasi hamda inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo‘lsa |
| Barcha javoblarda keltirilgan holatlarda milliy valyutaga bo‘lgan talab kamayadi |

**№ 95 Fan bobi-18; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Agar mamlakatda milliy valyutaning real almashinuv kursi ko‘tarilsa, boshqa sharoitlar o‘zgarmagan holda :** |
|---|
| Barcha javoblarda keltirilgan holatlar ro‘y beradi |
| Mamlakat sof eksporti qisqaradi |
| To‘lov balasining joriy schyoti taqchilligi ko‘payadi |
| Bu mamlakat fuqarolari uchun import tovarlari nisbatan arzonlashadi |

**№ 96 Fan bobi-18; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Agar markaziy bank milliy valyutani revalvatsiya qilsa :** |
|---|
| Eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar zarar ko‘radi |
| Mamlakatdagi import qilinadigan xomashyodan foydalanidigan tarmoqlar zarar ko‘radi |
| Bu mamlakatning savdo hamkorlari bo‘lgan mamlakatlarda ishsizlik darajasi o‘sishi mumkin |
| Mamlakatning sof eksporti ko‘payadi |

**№ 97 Fan bobi-18; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **So‘mning arzonlashuvi natijasida:** |
|---|
| O‘zbekistondan mahsulot import qilish chet elliklar uchun arzonlashadi |
| O‘zbekistonliklar uchun chet-eldan import qilinadigan mahsulotlar arzonlashadi |
| O‘zbekistondan mahsulot import qilish chet elliklar uchun qimmatlashadi |
| Sof eksport hajmi qisqaradi |

**№98 Fan bobi-18; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Valyuta tushumini ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘rnatilgan me’yorlar bo‘yicha taqsimlashdan iborat bo‘lgan valyuta nazorati chorasi olib kelishi mumkin:** |
|---|
| Importning qisqarishi va to‘lov balansi holatini vaqtincha yaxshilanishiga |
| Importning ko‘payishi va to‘lov balansi holatini vaqtincha yomonlashuviga |
| Milliy valyutaning almashinuv kursini barqaror o‘sishiga |
| Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqaror ko‘tarilishiga |

**№ 99 Fan bobi-18; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Milliy valyuta almashinuv kursining sezilarli pasayishi mamlakat eksporti va importi hajmiga qanday ta’sir ko‘rsatadi:** |
|---|
| Eksport ko‘payadi, import esa kamayadi; |
| Eksport va import hajmlari kamayadi; |
| Eksport kamayadi, import esa ko‘payadi; |
| Eksport va import hajmlari oshadi |

**№100 Fan bobi-18; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Qayd qilingan valyuta kursi tizimida:** |
|---|
| Pul-kredit siyosati to‘lov balansini tartibga solishda budjet-soliq siyosatiga qaraganda nisbiy ustunlikka ega, ammo ichki muvozanatni tartibga solishda emas; |
| Tashqi balansga, pul-kredit siyosatiga nisbatan, byudet-soliq siyosati kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi; |
| Budjet-soliq siyosati, rollarni taqsimlash qoidasiga ko‘ra, tashqi balansni tartibga solishda foydalaniladi; |
| Pul-kredit siyosati, rollarni taqsimlash qoidasiga ko‘ra, ichki balansni tartibga solishda foydalaniladi |

**№ 101 Fan bobi-19; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Keyns iqtisodiy modelning mazmunini qaysi asarida yoritib bergan?** |
|---|
| Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi |
| Keyns inqilobi |
| Keyns modeli |
| O’zbek modeli |

**№ 102 Fan bobi-19; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **“Tabiiy tartiblanish” xolati to’g’risida fikrni olg’a surgan olim kim?** |
|---|
| F. Keyns |
| A. Smit |

| |
|---|
| A. Monkretto |
| V. Petti |

**№ 103 Fan bobi-19; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Nimada tarmoq bitta firmadan iborat bo’lganligi sababli u mavjud mahsulot(xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi** |
|---|
| Sof monopoliyada |
| Oligopoliyada |
| Erkin raqobatda |
| Oligopoliya |

**№ 104 Fan bobi-19; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Dastlabki monopolizmga qarshi qonun qachon, qayerda qabul qilingan?** |
|---|
| 1890-yilda AQSHda |
| 1896-yilda Germaniyada |
| 1790-yilda Fransiyada |
| 1989-yilda Braziliyada |

**№ 105 Fan bobi-19; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **O’zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish maqsadida qachon “Monopol faoliyatni cheklash to’g’risida”gi qonun kuchga kiritildi?** |
|---|
| 1992-yilning avgust oyida |
| 1991-yilning dekabr oyida |
| 2000-yilning may oyida |
| 1998-yilning sentyabr |

**№106 Fan bobi-19; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Narxni davlat tomonidan tartibga solishdan maqsad:** |
|---|
| Takror ishlab chiqarishning zaruriy mutanosibligiga erishish, inflatsiya sur’atini pasaytirish, narx o’sishi va ish haqlari o’rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash |
| Sun'iy tushirilgan baholar va tariflar xususiy xo`jalikda ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirish |
| Davlat korxonalarini subsidiyalash, davlat budjetiga zarur resurslarni jalb etish |
| Tovar va xizmatlarga o`zgarmas narxlarni o`rnatish |

**№ 107 Fan bobi-19; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Tovar va xizmatlarni sifatiga bog’liq bo’lmagan holda narxning oshishi bevosita nimani yuzaga keltiradi?** |
|---|
| Inflatsiyani |
| Raqobatni |
| Oligopoliyani |
| Monopoliyani |

**№ 108 Fan bobi-19; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo’lgan ishlab chiqarish xodimlari malakasini oshirish asosan nimaga bog’liq?** |
|---|
| Budjetga |
| Inflatsiyaga |
| Raqobatga |
| Talabga |

**№ 109 Fan bobi-19; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Dunyoning 103 mamlakati bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish asosida tadqiqot o'tkazgan iqtisodchi kim?** |
|---|
| Dj. Skali |
| V. Petti |
| A. Smit |
| J. Sey |

**№ 110 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Aholi real daromadining o`sishi qaysi holda ro`y beradi?** |
|---|
| Nominal daromad va narxlarning o`sishi mutanosib bo`lganda |

| |
|---|
| Nominal daromad narxlardan tez o`sganda |
| Narxlar nominal daromaddan tez o`sganda |
| Soliqlar va majburiy to`lovlar nominal daromaddan tez o`sganda |

**№ 111 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Bozor munosabatlariga o‘tishning ilk davrida biz aholini ijtimoiy himoyalashning qaysi yo‘lidan bordik?** |
|---|
| Ishsizlarni himoyalash yo`lidan |
| Nafaqaxo`rlarni, talabalarni himoyalash yo`lidan |
| O`quvchi yoshlarni, 2 yoshga yetmagan bolalarni himoyalash yo`lidan |
| Butun aholini himoyalash yo`lidan |

**№ 112 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash masalasi respublikada qanday muhim vazifalarni hal etishga bog`liq?** |
|---|
| Odamlarning kuch va qobiliyatlaridan jamiyat ravnaqi yo`lida to`laroq foydalanish mexanizmini vujudga keltirish |
| Davlat mablag`lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari, jamg`armalarning mablag`larini kengroq jalb etish |
| Ishlab chiqarishni barqarorlashtirishning davlat tomonidan belgilangan reja asosida rivojlantirilishi |
| Aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga, qashshoqlikka yo`l qo`ymaslik |

**№ 113 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Aholining qaysi qatlamiga inflyatsiya nisbatan ko‘proq zarar keltiradi?** |
|---|
| Mulk egalariga |
| Pensionerlarga |
| Aktsiya egalariga |
| Ish boshqaruvchilarga |

**№114 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Narx umumiy darajasi va yalpi talab hajmi o‘rtasida qanday bog`liqlik mavjud?** |
|---|
| To`g`ridan – to`g`r |
| Qarama - qarshi |
| Ham to`g`ri va ham teskari |
| Bog`liqlik yo`q |

**№ 115 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Bozor iqtisodiyotida davlatning narxlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etish usulini ko‘rsating?** |
|---|
| Quyi narx darajasini o‘rnatish |
| Talab va taklif asosida |
| Taklifni oshirish |
| Bozor iqtisodiyotida narxlarni faqat iste`molchilar belgilaydi |

**№ 116 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Quyidagi o‘rnatilgan narxlardan qaysi biri davlat tomonidan narxlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish usuliga kirmaydi?** |
|---|
| Bozor muvozanati narxlari |
| Amortizatsiya meyorini o`rnatish |
| Muzlatilgan narxlar |
| Ma`muriy o`rnatilgan narxlar |

**№ 117 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Davlatning amortizatsiya harajatlarini tezlashtirishdan ko‘zlagan maqsadi:** |
|---|
| Ishlab chiqarishdan eski texnologiyani chiqarish va yangisini tezroq joriy etish |
| Ishlab chiqarishni pasaytirish |
| Asosiy fondlarni ko`paytirish |
| Foydani oshirish |

**№ 118 Fan bobi-20; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatidan ko‘zlagan maqsad nima?** |
|---|
| Ish haqi va narx darajasini mutanosibligini ta`minlash, takror ishlab chiqarishni rag`batlantirish |
| Narxlar darajasini oshirish |
| Iqtisodiy o`sishni pasaytirish |

| |
|---|
| Aholi daromadlarini qisqartirish |

**№ 119 Fan bobi-20; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **J.B.Seyning “bozor qonuni” asosiy qoidalari** |
|---|
| taklif o‘ziga mos darajada talabni xosil qiladi va bozorda muvozanatni ta’minlaydi |
| Investitsiyaning jamg`arishga tengligi, iqtisodiy o`sishni taminlaydi |
| Jamg‘arishning oshishi investitsiyani kamaytiradi |
| Taklif o`ziga mos talabni keltirib chiqarmaydi |

**№120 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Dj.M.Keyns davlatni iqtisodiyotdagi rolini oshirishda qaysi vositalardan keng foydalanishni taklif etadi?** |
|---|
| Fiskal va kreditli tartibga solish |
| Ijtimoiy himoya va aholi daromadlarini tartibga solish |
| Monetar va kredit |
| Jamg`arish va iste`mol fondlarini tartibga solish |

**№ 121 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| **Nima sababdan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning zarurati yuzaga keladi?** |
|---|
| Milliy moliya kapitalini iqtisodiy maqsadlarga ishlatishdan |
| Bozor mexanizmlari xal eta olmadigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni xal etish, muvofiqlashtirishdan |
| Harbiy-sanoat komplekslarini yaratish qiziqishlaridan |
| Davlat korxonalarini ko`paytirishdan |

**№ 122 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Iqtisodiyotda muammolardan qaysi birini bozor mexanizmi orqali bartaraf etib bo‘lmaydi?** |
|---|
| Talabni taklifga moslashtirish |
| Ijtimoiy himoya, mudofaa, ekalogiya va boshqa ijtimoiy muammolarini |
| Resurslardan samarali foydalanish |
| Fan texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish |

**№ 123 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Keynsning fikricha jami talab necha qismdan tashkil topadi?** |
|---|
| 4 |
| 5 |
| 6 |
| 3 |

**№ 124 Fan bobi-21; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi nimadan kelib chiqadi?** |
|---|
| Jamg'arish va investitsiya tengligidan |
| Raqobat kurashidan |
| Jamg'arishdan |
| Talab va taklifdan |

**№ 125 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Pul-kredit krizisi bu** |
|---|
| Mamlakatda pul kredit tizimining tang ahvolga tushishi |
| Milliy valyutaning obro'sini tushib ketishi |
| Birjada qimmatbaho qog'ozlar kursining birdan tushib ketishi |
| Jamg'arish va investitsiya tengligidan |

**№126 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Iqtisodiy siklning klassik varianti necha fazadan iborat** |
|---|
| 4 |
| 3 |
| 5 |
| 6 |

**№ 127 Fan bobi-21; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Bozor iqtisodiyoti va mulkning ko’p shakllari mavjud bo’lgan sharoitda dastur va rejalar davlat korxonalari uchun qanday xarakterga ega?** |
|---|

| |
|---|
| Direktiv |
| Majburiy |
| Indekativ |
| Barcha javoblat to'g'ri |

**№ 128 Fan bobi-21; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar –** |
|---|
| Hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar. |
| Ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi majmui |
| Mavjud iqtisodiy munosabatlar majmuasining iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikdagi tizimi. |
| Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan unsurlar tizimi (ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari) |

**№129 Fan bobi-21; Bo'lim-2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmi qaysi tashkilot tomonidan olib boriladi?** |
|---|
| Tuman xokimiyatlari tomonidan; |
| Mahalla tomonidan; |
| Viloyat xokimiyatlari tomonidan; |
| Respublika xukumati tomonidan. |

**№ 130 Fan bobi-21; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Ishlab chiqarishning kengaytirilgan asosda takrorlanishiga asosiy sabab nima?** |
|---|
| Jamiyat extiyojlarining tobora yuksala borishi |
| Ishlab chiqaruvchilarning foyda ketidan quvish |
| Ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz yangilanib turishi |
| Farovonlikning ortishi |

**№ 131 Fan bobi-2; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Investitsion siyosat** |
|---|
| Kapital qo'yilmalarning eng ustivor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish. |
| Mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxona yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi. |
| Biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalaga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat. |
| Mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi |

**№ 132 Fan bobi-2; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Investitsiyalar -** |
|---|
| Mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxona yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi. |
| Kapital qo'yilmalarning eng ustivor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish |
| Biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalaga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat. |
| Asosiy fondlar, ya'ni binolar, asmavzu-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi |

**№133 Fan bobi-2; Bo'lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| **Modernizatsiya jarayoni doirasida odatda qanaqa o'zgarishlar ro'y beradi?** |
|---|
| Ijtimoiy munosabatlar butun tizimining takomillashuvi va turmush tarzining o'zgarishi – ixtiloflarni tartibga soluvchi hamda ijtimoiy muammolarni hal etuvchi yangi tartib va mexanizmlarning paydo bo'lishi |
| Alohida individlarning ongini oshishi; |
| Yollanma xodimlarning kasbiy ixtisoslashuvini o'zgarmaganligi |
| Tarkibiy o'zgarishlar ro'y bermadi |

**№ 134 Fan bobi-21; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Ijtimoiy mehnat taqsimoti nima?** |
| Har xil mehnat turlarining bir biridan ajratilishi, pirovardida ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi turli guruh kishilarining xilma xil mehnat bilan band bo‘lishi; |
| Bajarilgan ishlarning oddiy va murakkab mehnatga taqsimlanishi; |
| Bajarilayotgan ishlarning qo‘l mehnatiga, mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan mehnatga taqsimlanishi; |
| Ishlab chiqarish jarayonini tarkibiy qismlarga taqsimlanishi. |

**№ 135 Fan bobi-11; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Mehnat resurslaridan foydalanish bosqichi nimalardan iborat?** |
| Takror ishlab chiqarish korxonalarida kalendar ish rejimida mehnat resurslaridan samarali foydalanish; |
| Ish beruvchilar tomonidan mehnat resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish; |
| Mehnatga yaroqli aholidan ishlab chiqarish omili sifatidan foydalanishni ta’minlash; |
| Muayyan ish joylarida ishchi kuchining mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishi maqsadida faoliyat ko‘rsatish. |

**№ 136 Fan bobi- 21; Bo‘lim-1 ; Qiyinchilik darajasi-1 ;**

| |
|---|
| **Mehnat potensialining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga nimalar kiradi?** |
| Mehnat resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati; |
| Mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatining majmui; |
| Mehnatga qobiliyatli aholining mehnat unumini ifodalovchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkich; |
| Jami aholining mehnatga qobiliyati |

**№137 Fan bobi-6; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| |
|---|
| **Bugungi kunda iqtisodiyotni monetar boshqarishning pul nazariyasi, inflyatsiya bilan kurash muammolari AQSH olimlari ya’ni kim tomonidan ishlab chiqilmoqda?** |
| Milton Fridman |
| Keyns |
| Marshal |
| Fridman |

**№138 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| |
|---|
| **Makroiqtisodiy nazariya nechta ko’rinishdan iborat?** |
| 2 |
| 1 |
| 5 |
| 4 |

**№ 139 Fan bobi-3 ; Bo‘lim-3 ; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| |
|---|
| **Makroiqtisodiy nazariya nechta ko’rinishi farqlanadi?** |
| Pozitiv va normativ |
| Milliy va jahon |
| Makro va mikro darajada |
| Tashqi va ichki |

**№ 140 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2 ;**

| |
|---|
| **Mamlakat hududida ma’lum muddat davomida yangidan yaratilgan qiymatlar yig’indisi nima deb ataladi?** |
| YAIM |
| YAMM |
| SMD |
| SIM |

**№ 141 Fan bobi- 3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **YAIM necha xil usul bilan hisoblanadi?** |
| 3 |
| 2 |
| 4 |
| 5 |

**№ 142 Fan bobi-3; Bo‘lim- 2; Qiyinchilik darajasi- 3;**

| |
|---|
| **YAIM +mamlakat yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan chet ellarda olingan va mamlakatga olib kirilgan daromad – chet el yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan mamlakatda olingan va olib chiqib ketilgan daromadlar bu?** |
| YAMD |
| YAID |
| SIM |
| SMD |

**№ 143 Fan bobi- 3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **YAMD+Xorijdan olingan sof transfertlat bu?** |
| YAMTD |
| SHD |
| SHTD |
| SMM |

**№ 144 Fan bobi-3; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Davlatning narxni tartibga solishdan ko`zlagan maqsadiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?** |
| Ishsizlikni butunlay yo`qotish; |
| Ish haqi va narx o`sishini mutanosibligini ta`minlash; |
| Inflyatsiya suratini pasaytirish; |
| Barqaror takror ishlab chiqarishga erishish. |

**№ 145 Fan bobi-23 ; Bo‘lim-3 ; Qiyinchilik darajasi-3 ;**

| |
|---|
| **Ishsizlik nafaqasi kimlarga belgilanishi mumkin?** |
| Ishsiz deb rasman e’tirof etilganlarga; |
| Mahallanmng tavsiyasi bilan; |
| Hokim qaroriga asosan; |
| Ariza beruvchiga; |

**№ 146 Fan bobi-4; Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-3;**

| |
|---|
| **Aholini ishsizligining qanday turlari bor?** |
| Vaqtinchalik, friksion, tarkibiy; |
| Qisman ish bilan bandlik, haqiqiy ishsizlik; |
| Haqiqiy ishsizlik, qisman ishsizlik; |
| To‘la bo‘lmagan ish bilan bandlik, mavsumiy ishsizdik. |

**№ 147 Fan bobi-4; Bo‘lim-3; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini ko‘taradi, qachonki:** |
| Pul taklifini kamaytirishga qaror qilsa; |
| Ochiq bozorda obligatsiyalarni sotib olsa; |
| Depozitlarni majburiy zahiralash normasini pasaytirsa; |
| Pul-kredit siyosatini yumshasa. |

**№ 148 Fan bobi- 4; Bo‘lim- 2; Qiyinchilik darajasi-2;**

| |
|---|
| **Nominal yaim ko‘paysa nima o’zgaradi?** |
| Pulga transaksion talab o‘sadi; |
| Baholar darajasi pasayadi; |
| Foiz stavkasi ko‘tariladi; |
| Nominal yaim kamayadi. |

**№149 Fan bobi- 4; Bo‘lim-1; Qiyinchilik darajasi-1;**

| |
|---|
| **Investor -** |
| Biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalaga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat. |
| Mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxona yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o’zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag’lar kiritilishi. |
| Kapital qo’yilmalarning eng ustivor yo’nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so’mga mahsulot o’sishi va milliy daromadning eng yuqori ko’rsatkichlariga erishish. |
| Inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirish |

**№150 Fan bobi-4;Bo‘lim-2; Qiyinchilik darajasi-1;**

| **Moliyaviy investitsiyalar** |
|---|
| Tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog’ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi. |
| Tarkibiga asosiy fondlar, ya’ni binolar, asmavzu-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi. |
| Miqdori juda rang-barangdir, ya’ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. |
| Jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o’zlashtirishga qo’shiladigan investitsiyalar kiradi |

## IQTISODIYOT NAZARIYASI

### I BOB. “Iqtisodiyot nazariyasi” faniga kirish

1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.
2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.

### II BOB. Fanning predmeti va uslublari

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari
2. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunshalar)
3. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning uslublari

### III BOB. Iqtisodiy tizimlar va doiraviy aylanishlar

1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqishlari va ularni bilishga bo’lgan turlisha yondashuvlar
2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari

### IV BOB. Mulkshilik munosabatlari va ijtimoiy soha

1. Mulkshilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk ob’ektlari va sub’ektlari
2. Mulkshilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni
3. O’zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan shiqarish va xususiylashtirish maqsadi, yo’llari va usullari

### V BOB. Tovar va pul munosabatlarining shakllanishi

1. Natural ishlab shiqarishdan tovar ishlab shiqarishga o’tish va uning rivojlanishi.
2. Tovar va uning xususiyatlari.
3. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyalari.
4. Pulning kelib shiqishi, mohiyati va vazifalari.

### VI BOB. Iqtisodiyotning globallashuv sharoitida bozorning amal qilishi

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.
2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.
3. Bozor tushunshasi, uning vazifalari va turlari.
4. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.

### VII BOB. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari

1. O’tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o’tish yo’llari.
2. O’zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o’tishning tamoyillari va xususiyatlari.
3. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo’nalishlari.

### VIII BOB. Talab, taklif va bozor muvozanati

1. Talab tushunshasi va uning miqdoriga ta’sir qiluvshi omillar. Talab qonuni.
2. Taklif tushunshasi. Taklif miqdoriga ta’sir qiluvshi omillar. Taklif qonuni.
3. Talab miqdori va taklif miqdori o’rtasidagi nisbatning o’zgarishi. Bozor muvozanati.

### IX BOB. Monopoliyaning iqtisodiy asoslari

1. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi
2. Monopoliyalarning turlari.

### X BOB. Antimonopol qonunshilik va monopoliyalarni tartibga solish

1. Monopoliyaga qarshi qonunshilikni mazmuni
2. O’zbekistonda raqobatshilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunshilik

## XI BOB. Ish haqining shakllanishi va amal qilishi

1. Ish haqi tushunshasi.
2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari
3. Ish haqining tushunshasi.Iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari

## XII BOB. Iste'molchi xulqi nazariyasi: naflilik va uni maksimallashtirish qoidasi

1. Iste'molshi hatti-harakati nazariyasi.
2. Naflilik va uni maksimallashtirish qoidasi

## XIV BOB. Biznes va tadbirkorlikda texnologik va innovatsion samaradorlik. Tadbirkorlik kapitali

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunshasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
3. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati bosqishlari.
4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.
5. Asosiy kapitalni takror ishlab shiqarish va undan foydalanish samaradorligi.

## XV BOB. Ishlab shiqarish xarajatlari va foyda

1. Ishlab shiqarish xarajatlari tushunshasi va uning tarkibi.
2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab shiqarish xarajatlarining o'zgarish tamoyillari.
3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi.
4. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari.

## XVI BOB. Agrar munosabatlar: ijara haqi va renta

1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab shiqarishining xususiyatlari.
2. Renta munosabatlari.
3. Agrosanoat integratsiyasi va uning asosiy ko'rinishlari.
4. Agrobiznes va uning turlari.

## XVII BOB. Yalpi ishki mahsulot va milliy daromad

1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkishlari.
2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari.
3. Yalpi ishki mahsulotni hisoblash usullari.

## XVIII BOB. Yalpi talab va yalpi taklif

**REJA:**

1. Yalpi talab tushunshasi va uning hajmiga ta'sir qiluvshi omillar
2. Yalpi taklif tushunshasi.
3. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi.

## XIX BOB. Iqtisodiy o'sish

1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkishlari.
2. Iqtisodiy o'sishning omillari.
3. Iqtisodiy o'sish modellari.
4. Milliy boylik tushunshasi va uning tarkibiy tuzilishi.

## XX BOB. Iqtisodiy muvozanatlik va nisbatlar

1. Iqtisodiy nisbatlar va ularning turlari.
2. Iqtisodiy muvozanat, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari.

## XXI BOB. Fiskal siyosat, davlat byudjeti va uning taqshilligi

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.
2. Soliq tizimi va uning vazifalari.

## XXII BOB. Pul muomalasi, kredit va banklar

1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.
2. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.
3. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari

## XXIII BOB. Iqtisodiyotda davlatning roli

1. Davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari.

3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.

## XXIV BOB. Aholi daromadlari tengsizligi

1. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkishlari.
2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.
3. Davlatning ijtimoiy siyosati

## XXV BOB. Ishshi kushi bozori. Ishshi kushi va uning bandligi

1. Ishshi kushini takror hosil qilish va uning xususiyatlari
2. Ishshi kushi bozori. Ishshi kushi yalpi talabi va yalpi taklifi nisbati
3. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash

## XXVI BOB. Xalqaro savdo

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab shiqarishning baynalminallashuvi.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari.
4. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.

## XXVII BOB. Valyuta kursi, to'lov balansi va uning taqshilligi

1. To'lov balansi va mazmuni
2. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.

# MIKROIQTISODIYOT

## 1-BOB. Kirish. Fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari.

1. Inson ehtiyojining cheksizligi va resurslarning cheklanganligi.
2. Bozor, uning tarkibi, amal kilish mexanizmi.
3. Bozor iqtisodiyotining sub ektlari. Jamiyatdagi iqtisodiy muammolar va ularni xal etishda mikroiqtisodiyot fanining roli.

## 2-BOB. Iqtisodiy bazis tushunchalari.

1. Iqtisodiy ehtiyoj tushunchasi.
2. Iqtisodiy ne'matlar va ularning xususiyatlari.
3. Iqtisodiy resurslar va ularning turlari.

## 3-BOB. Talab va taklif tahlili asoslari.

1. Talab tushunchasi va talab chizig'i.
2. Taklif va taklif miqdori.
3. Bir omilli va ko'p omilli talab, taklif funksiyalari.
4. Talab va taklifga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

## 4-BOB. Bozor muvozanati, maksimal va minimal narxlar.

1. Muvozanatlik tushunchasi va bozor muvozanati.
2. Muvozanat narx va muvozanat mahsulot miqdori.
3. Bozor muvozanatining o'zgarishi va unga ta'sir etuvchi omillar.

## 5-BOB. Talab va taklif elastikligi.

1. Elastiklik tushunchasi va koeffitsienti.
2. Talabni narxga ko'ra elastikligi.
3. Talab elastikligiga ta'sir etuvchi omillar.

## 6-BOB. Iste'molchi tanlovi nazariyasi.

1. Iste'mol nazariyasida ne'mat tushunchasi.
2. Iste'molchi tanloviga ta'sir etuvchi omillar.
3. Naflilik tushunchasi, befarqlik egri chizig'i.
4. Byudjet chegarasi.

## 7-BOB. Daromad samarasi va almashtirish samarasi.

1. «Daromad-iste'mol» chizig'i.
2. «Narx-iste'mol» chizig'i va normal Gifen tovarlar uchun talab chizig'i.
3. Normal tovarlar uchun daromad samarasi va almashtirish samarasi.

## 8-BOB. Bozor va tavakkalchilik.

1. Noaniqlik va tavakkalchilik.
2. Tavakkalchilik va uning vujudga kelish sabablari.
3. Tavakkalchilikni pasaytirish yo‘llari.

**9-BOB. Firma va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**
1. Firma tushunchasi.
2. Tadbirkorlikning asosiy shakllari.
3. O‘zbekiston Respublikasida «Mulk tug‘risida» giqonunga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar.

**10-BOB. Ishlab chiqarish nazariyasi.**
1. Ishlab chiqarish jarayoni.
2. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari.
3. Ishlab chiqarish funksiyalari tushunchasi.

**11-BOB. Ishlab chiqarish xarajatlari.**
1. Ishlab chiqarish omillari va ularga bo‘lgan talab.
2. Xarajatlar tushunchasi.
3. Ichki va tashqi xarajatlar.
4. Ishlab chiqarish xarajatlari chiziqlari.

**12-BOB. Raqobatlashgan bozorda,qisqa muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi.**
1. Raqobatlashgan bozor va uning shartlari.
3. Firmaning yalpi, o‘rtacha, chekli daromadlari.
3. Korxona foydasi.

**13-BOB. Raqobatlashuvchi firma va tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanati va tarmoqning taklifi.**
1. Uzoq muddatli xarajatlar.
2. Uzoq muddatli xarajatlarning turlari.
3. Tarmoqning muvozanat nuqtasi.

**14-BOB. Raqobat va yakkaxokimlik.**
1. Raqobat tushunchasi.
2. Raqobatlashmagan bozor turlari.
3. Monopolistik talab va taklif.

**15-BOB. Bozor hokimiyati sharoitida narx belgilash tamoyillari.**
1. Narx tushunchasi, tamoyillari va funksiyalari.
2. Bozor sharoitida amalqiluvchi narx turlari.
3. Monopol narx belgilashdagiqoidalar.
4. Monopol hokimiyat va famiyat farovonligi.

**16-BOB. Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish.**
1. Narx tushunchasi, tamoyillari va funksiyalari.
2. Bozor sharoitida amalqiluvchi narx turlari.
3. Monopol narx belgilashdagiqoidalar.
4. Monopol hokimiyat va famiyat farovonligi.

**17-BOB. Kapitalqo‘yilmalar va kapital bozori.**
1. Asosiy va aylanma mablag‘lar.
2. Investitsiyalar va investitsiyalash.
3. Asosiy fondlarni joriy xarajatlarini va istiqboldagi daromadini baholash.

**18-BOB. Korxonalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi.**
1. Bozor va davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari.
2. Davlat mulki va tadbirkorlik.
3. Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirish faoliyatlari.

## MAKROIQTISODIYOT

**1-BOB. Makroiqtisodiyot faniga kirish**
1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi, predmeti va ob’ekti.

2. “Makroiqtisodiyot” fanining tadqiqot usullari.
3. “Resurslar- tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar –xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli.

**2-BOB. Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar va ularni hisoblash**
1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo’llaniladigan asosiy ko’rsatkichlar.
2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari.
3. YAIM ni ishlab chiqarish uslubida aniqlash.

**3-BOB. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi. Ishsizlik.**
1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.
2. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o’lchanishi.
3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari.A. Ouken qonuni.

**4-BOB. Inflyasiya va aksilinflyasiya siyosati**
1. Inflyasiyaning mohiyati va hisoblanish usullari.
2. Inflyasiyaning turlari. Talab va taklif inflyasiyasi.
3. Inflyasiya va ishsizlik o’rtasidagi bog’liklik. Fillips egri chizig’i.

**5-BOB. YAlpi talab-yalpi taklif modeli**
1. YAlpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. YAlpii talab tushunchasi va grafigi.
2. YAlpi talabning baho va bahodan boshqa omillari.
3. YAlpi taklif grafigi va omillari.
4. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy muvozanat buzilishining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishiga ta’siri.

**6-BOB. Iste’mol, jamg’arish va investisiya funksiyalari**
1. Iste’mol va jamg’arish, ularning grafiklari va funksiyalari.
2. Iste’mol va jamg’arishga o’rtacha hamda chegaralangan moyillik.
3. Investisiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi.

**7-BOB. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat modeli**
1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari.
2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar.
3. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi.

**8-BOB. Pulga talab funksiyasi**
1. Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari.
2. Pulga talabning klassik nazariyasi.
3. Pulga talabning keynscha nazariyasi.

**9-BOB. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat**
1. Pul taklifi. Bank multiplikatori.
2. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Pul multiplikatori.
3. Pul bozorida muvozanat.

**10- BOB. Davlat byudjeti. Soliqlar.**
1. Davlat byudjetining mohiyati va funksiyalari.
2. Davlat byudjeti xarajatlari.
3. Soliqlarning turlari va funksiyalari.

**11- BOB. Byudjet- soliq siyosati**
1. Byudjet –soliq siyosatining mohiyati va usullari.
2. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari.
3. Diskret va nodiskret fiskal siyosat. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi.

**12-BOB. Bank tizimi. Pul-kredit siyosati**
1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
2. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko’rinishlari. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi.
3. Ochiq bozordagi operasiyalar va hisob stavkasi.

**13-BOB. IS-LM modeli**
1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog’liqligi.
2. Modelning asosiy tenglamalari

3. IS - egri chizig'i va uning tenglamasi
4. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi

**14-BOB. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari**
1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va o'lchanishi.
2. Iqtisodiy o'sishning omillari va tiplari.
3. Iqtisodiy o'sishning keynscha modellarining umumiy tavsifi. E.Domar modeli.

**15-BOB. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari**
1. R.Solouning neoklassik modeli asoslari.
2. R.Solou modelida kapitalning chiqib ketishi aholi soni o'sishing barqaror muvozanat va iqtisodiy o'sishga ta'siri.
3. Texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri.. Felpsning «oltin qoidasi».

**16- BOB. Xalqaro savdo nazariyasi**
1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko'rinishlari
2. A.Smitning mutlaq va D. Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi
3. Xeksher – Olinning neoklassik konsepsiyasi. Leontev taajjubi

**17-BOB. Tashqi savdo siyosati**
1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari.
2. Importga ta'riflar. Importga tariflar kiritilishining iqtisodiy oqibatlari.
3. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalari va importni kvotalar orqali tartibga solish.

**18-BOB. To'lov balansi**

1. To'lov balansi tushunchasi va uning tuzilishi.
2. Joriy operasiyalar hisobi balansi.
3. Kapital harakati hisobi balansi.

**19-BOB. Valyuta kursi**
1. Valyuta va jahon valyuta tizimi tushunchasi.
2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari.
3. Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar.

**20-BOB. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat**
1. Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari.
2. Mandell Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli.
3. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar

1. Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya» nashr 2018. - 512 bet.

2. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod - moliya» 2018. - 480 bet.

3. Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo`llanma. - T.: «Fan va texnologiya» nashr 2017. - 638 bet.

4.. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: Iqtisod - moliya - 728 bet.

5.В. Ф.Максимова [и др.] Экономическая теория: учебник для бакалавров /; под общей редакцией В. Ф. Максимовой. - Москва: Издательство Юрайт 2019. - 580 с.

6. Днепров М. Ю. Экономическая теория: учебник для вузов / М. Ю. Днепров О. В. Михайлюк` В. А. Николаев. - Москва: Издательство Юрайт 2019. - 216 с.

7. Г. Е. Алпатов [и др.]. Экономическая теория: учебник и практикум для бакалавриата и специалитета / Под редакцией Г. Е. Алпатова. - Москва: Издательство Юрайт 2018. - 299 с.

8. Mc Connell Brue. Economics. 21th edition. Mcgraw-hill/Irwin USA 2017. 450 p.

9. Gregory Mankiw. Principles of Economics Boston MA USA: Cengage Learning 2018. - 360 p.

10. Economics (Irwin Economics). Campbell R. McConnell, Stanley L. Brae, Sean M. Flynn. —21th edition. 2018.

11. Хажиев Б Д., Мамбетжанов К.К.. Экономическая теория. Учебник Т.: «IQTISODIYOT», 2019. - 552. стр

12. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik. - T.: Barkamol fayz-media, 2017. - 783 bet.

13. N.M. Maxmudov, A.B. Shakarov, X.A. Ulashev, J.A.Shakarov "Makroiqtisodiyot" Darslik Toshkent-2023 yil

14. M.T.Asqarova, G.E.Zaxidov, L.F.Amirov, J.J.Jamolov "Makroiqtisodiyot" Darslik Toshkent-2021 yil

15. G.A.Abdumalikov "Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot" o'quv qo'llanma Toshkent-2022 yil

16. Xamidov O.X., Shaykan A.V., Mamanazarov A.B. Микроэкономика: теория и практика. Учебник. -Т.: Малик принт. 2021.

17. Mustafaqulov Sh.I. Eshov M.P. Mikro-makroiktisodiyot fanidan masalalar yechish bo'yicha. uslubiy-qo'llanma -T.: Namangan nashriyoti. 2018.

18. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. "Mikroiqtisodiyot": Darslik.. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. -270 b.

19. Salimov B.T., Yusupov M.S., Ishnazarov A.I. Mikroiqtisodiyot-2. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019.